

821
#90

RAXSHONA AHMEDOVA

ORZU
VA DENGIZ



• KITOBIM •

• BIRINCHI •




HIKOYALAR

824
190

5223

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR IYIUSHMASI

"IJOD" JAMOAT FONDI



RAXSHONA AHMEDOVA

ORZU VA DENGIZ

Hikoyalar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:

Jo'rabek JAHON

Mas'ul muharrir:

Isajon Sulton

Raxshonaning ushbu to'plamidagi hikoyalarni o'qir ekansiz, unda avvalo ayol qalbi rang-barang hissiyotlari bilan bo'y ko'rsatib turadi. Qolaversa, bola dilidagi shaffof kechinmalar yoki keksalarga xos ehtiyotkorlik deysizmi, xullas, hamma yoshdagi kishilarning fikr-o'ylari g'oyatda hayotiy va ishonarli yoritilganki, aslo sun'iylik, zo'rma-zo'rakilik uchramaydi. Bunday fazilat bilan nasrda samarali ijod qilayotgan yosh qalamkash qizimizning ilk kitobi barcha kitobxonlar tomonidan samimiy qabul qilinishiga ishonamiz.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6473-8-1

© R. Ahmedova, 2020

© "Adabiyot", 2020

SALOHİYAT DARAKLARI

Raxshona Ahmedova adabiyotimizning eng kenja to'liqiniga mansub umidli yosh ijodkorlarimizdan. Uning ushbu birinchi to'plami bahonasida ijodiga bir qur ko'z tashlash imkoni tug'ildi.

Kundalik hayotda, kishi tevaragida yuzlab-minglab voqealar ro'y berib turadi. Ular orasidan badiiy asarga xomashyo bo'la oladiganlarini tanlab, uni o'z tasavvuri, fikr va xulosalari bilan to'yintirib taqdim qilish ancha murakkab ish.

Buni shunday ta'riflasa ham bo'ladi: fizika fanida sinxrofazotron degan uskuna bor. U atom sanoatida ishlatiladi. Tabiiy ravishda qazib olinib tozalangan uran moddasi shu holida quvvat berishga yaramaydi, energiya olish uchun uni to'yintirish kerak. Sinxrofazotron shu ishni bajaradi.

Yozuvchi ishini ham shunga o'xshatsa bo'ladi. Ya'ni, hayot xomashyosi yozuvchining iste'dodi, bilimi va xulosalari bilan to'yinsagina go'zal, betakror, to'la quvvatli asarga aylanadi.

Ijodkor yoshlarimizning, xususan, Raxshona-ning ham asarlariga shunday nuqtadan yondashish kerak. Adabiyot olamiga qadam qo'yayotgan yosh yozuvchi voqea-hodisalarni qay tarz to'yintirib, qay ranglar, manzaralar bilan boyitadi, qanday xulosalarga ro'baro' qiladi?

Misol uchun, "Samad muallim" hikoyasini olaylik. Muallim – ziyo tarqatuvchi mo'tabar kishi. Johillik va zulmga qarshi isyon istagi shunday muborak zotni deyarli qotilga aylantiradi. "Zulm zulmni tug'adi" degan fikr asar g'oyasiga aylanadi.

Raxshonaning yana bir hikoyasi Ayi – xola haqida. Musofir talaba hamda farrosh ayol haqidagi bu bitikni o'qib boraversangiz, birdaniga hikoya sirayam u haqida emasligini, balki ayolga munosabatimizdagi darz-u nuqsonlardan hikoya qilayotganini anglab qolamiz.

Yozuvchi qizimiz Orol dengizi fojiasiga munosabat bildirishga ham ulguribdi. Umuman, dengiz taqdiri turli-tuman asarlarda qalamga olingan. Raxshona ham iymana-iymana, ushbu asr fojiasini taqdirlarga bog'laydi. Keluvchi-ketuvchilar dengiz o'rnida paydo bo'lgan sahroda esdalik uchun suratga tushish bilan ovora. Haqiqiy Orolni o'z ko'zi bilan ko'rgan chol-kampirning o'g'li Amangeldi ham o'sha mehmonlar bilan birga. Shundan so'ng yozuvchi ularning so'nggi kunlarini tasvirlar ekan, mantiqiy yechimga ro'baro' qiladi: dengiz ketgach, uni ardoqlaydigan kishilar ham dunyodan ketishdi...

"Seni yaxshi ko'raman, Mino" yoki "Meni kechir, Kumiko" hikoyalarining afzal jihati: umuminsoniylik g'oyalari tarannumidir. Bu ajoyib xislat yosh yozuvchining asarlarida o'zga ellar kishilari orasidan o'zbekona fazilatlarni

izlash tarzida namoyon bo'ladi. Shuningdek, "Sevgim mening, sevgilim mening" qissasida ayol qalbi, uning intilishlari va afsus-pushaymonlari ishonarli tarzda hikoya qilinadi.

Xiyol tortinchoqlik bilan yozilgan ushbu hikoyalar Raxshona Ahmedovaning vaqt-soati kelib chuqur ruhiy tahlilga asoslangan, hayot haqiqati aks etgan keng ko'lamli, tuyg'ularga boy pishiq-puxta asarlar yarata olish salohiyatidan darak berib turibdi. Ushbu qiyin va sharafli yo'lda yozuvchiga omad yor bo'lsin, iste'dodi va zakovatining hosilasi bo'lmish asarlari el-yurtiga xizmat qilsin.

Isajon SULTON,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
yozuvchi.

“MENI KECHIR, KUMIKO!”

1

Kumiko bilan Yaponiyada tanishganmiz. Biz Tohoku universitetining tarix fakultetida birga tahsil olardik. Darsdan so‘ng uning uyiga borib turardim, u menga yapon tilini o‘rgatardi. Evaziga u bilan ingliz tilida gaplashishim kerak edi.

Sochlari o‘g‘il bolalarnikidek kalta, ko‘zlari qisiq, go‘zallik borasida o‘rtamiyona qiz edi, desam mendan ranjimas. Tishlarining biroz oldinga chiqib turishidan xijolat tortar, kulganida og‘zini to‘sisiga urinarkan, har doim ham buning uddasidan chiqqa olmasdi. U har bir yapon ayoli kabi mayda qadam tashlar va aynan shu jihat uni o‘g‘il bolalardan ajratib turardi.

Ba‘zan turib-turib so‘rardi:

– Sizlarda hamma qizlar chiroylimi?

Men g‘alati bo‘lib ketardim.

– Sen ham chiroylisan, Kumiko, – derdim jilmayib. – Har qizning o‘z go‘zalligi bor.

U juda mehribon va xushchaqchaq qiz edi. Kamgap, odamovi fe‘lli yaponlarga qaraganda, kirishimli, so‘zamol biz, o‘zbeklarga ko‘proq o‘xshab ketardi. Biroq u o‘zi haqida gapirishni uncha xushlamas, u bilan suhbatimiz mavzusi faqat men haqimda bo‘lardi.

– Onang bilan gaplashib turasanmi?

– Kunda-kunora.

– Kunora? – U ko‘zlarini boricha ochib, hayron bo‘lardi.

– Nima haqida gaplashasan?

– O‘zimiz haqimizda. Yaxshi yuribmanmi? Nimalar bilan bandman, nimalar qilyapman, shularni so‘raydilar. Men ham ularning sog‘lig‘i haqida qiziqaman. Uydagilar yaxshimi, nima yangiliklar, bilgim keladi.

– Zerikib ketmaysanmi?

– Nimadan? So‘zlashishdanmi? Yo‘q, iloji bo‘lsa, har kuni gaplashardim.

U hayron bo‘larkan, sas-sadosiz, picha o‘ylanib qolardi. U oilada yolg‘iz farzand, shunga qaramay, ota-onasidan alohida yashardi. Bu esa unga g‘alati ko‘rinar, u xuddiki mehribonlik uyida katta bo‘lgandek tuyulaverardi. Ota-onasi haqida ko‘p ham gapirmas, uning Kiyoshi ismli yoqimtoy, lekin akillayveradigan kuchugi bor edi, xolos. Kumiko uni haddan ziyod yaxshi ko‘rardi.

Haftada bir marta kuchugini “Go‘zallik saloni”ga olib borar, oyda ikki marta veterinar ko‘rigidan o‘tkazib turardi. Uni yuvib-tarashar, yunglarini kaltalashardi. Pahmoqvoyning yunglarini kaltalab, boshiga lenta qo‘ndirib qo‘yishganida, biram yoqimtoy bo‘lib ketardiki, biroq bu mening g‘ashimni keltirardi. O‘zimga qo‘yib berishsa, uni zumda ko‘chaga quvib yuborgan bo‘lardim. Kishiga alam qiladi, axir, uysizlar, to‘yib-to‘ymay kun kechirayotganlar qancha?

Balkim, unga hasadim kelar, yana bilmadim. Biroq uni har ko'rganimda g'azabim qaynardi, buni Kumikoga sezdirmaslikka harakat qilardim.

Kumiko uni har kuni aylantirishga olib chiqarkan, ortidan hojatigacha tozalab yurardi. Buni ko'rib jiyirinib qo'yardim. Kuchuk ham meni yoqtirmas, ko'rishi bilan akillashni boshlardi.

- Bas qil, Kiyoshi, - derdi Kumiko buyruq ohangida unga ko'rsatkich barmog'ini ko'rsatib.

Kuchuk shu zahotiyuq jimib qolardi. Uning hurmatini qilsa kerak-da. U Kumikoga boshqacha boqardi, qarashlarida o'zgacha mehrni ilg'ardim. Har qancha g'ashim kelmasin, tan olib aytaman, inson va hayvon o'rtasidagi bu qadar yaqin munosabatni ilk bor ko'rishim edi.

Jahlim chiqishining yana bir jiddiy sababi, Kumiko o'ziga umuman e'tibor qaratmas, oyna oldida o'tirganini hech ko'rmasdim. Qosh-ko'zlarini bo'yash tugul, hatto lablariga bo'yoq surmasdi.

Bir gal g'ashim kelib dedim:

- Shu bir jonivorga nega buncha mehr qo'y-masang, undan ko'ra turmushga chiq, bolali bo'l, ana ularga mehr bersang bo'ladi.

- Turmush qurish menga emas, - dedi u kulib.

- Nega? Nimaga bunday o'ylaysan?

- Oila jiddiy masala, o'ylab ko'rishim kerak, - dedi u doimgidek kuchugi boshini silab qo'yarkan.

– Eeee, nimasini o‘ylaysan, – dedim hovliqib, – turmushga chiqish sen o‘ylaganchalik qo‘rqinchli narsa emas, qolaversa, ana-mana deguningcha yoshing qirqqa boradi. Keyin nima qilasan?

– Yosh muhim emas, eng muhimi, sen o‘zingga har tomonlama mos insonni uchratish, – dedi u muloyimlik bilan.

– Bu dunyoda mukammal inson bo‘lmaydi, azizim, – dedim bo‘sh kelmay.

Biroq bu borada qarashlarimiz turlicha edi. Hech qachon fikrlarimiz bir nuqtada to‘qnashmasligi aniq. U o‘ziga mos insonni bir kun uchratishiga ishonsa, men ertaroq turmushga chiqish kerakligi, ayol kishining yoshi o‘tib qolsa, ertaga o‘ziga munosib insonni topolmasligi haqida va‘z o‘qirdim.

Zum o‘tmay dedim:

– Unda yetimxonadan biror bola asrab ol. Ona parvarishi, mehriga zorlar qancha, – bu gapni kuchukdan qutulish uchun aytdimmi, bilmadim.

– Nimalar deyapsan, Shona! (U meni shunday chaqirardi.) Bola ortiqcha yuk! Men kuchukdan xohlagan payt voz kechishim mumkin, lekin boladan... kechib bo‘lmaydi.

Kumikoni tushunish qiyin edi. Uning gaplari meni o‘ylantirib qo‘yardi. Xohlagan payt voz kechishi mumkin bo‘lgan bir kuchukka nega unda buncha e‘tibor bermasa, hayron bo‘lardim.

2

Diplom ishim himoyasi yaqinlasharkan, Kumiko doimgidek menga qo'ldan kelgancha yordam bermoqda edi. O'sha Kumiko uchun mash'um kunda ham biz birga edik. Bitiruv ishi ma'ruzasidagi ba'zi jummalarni to'g'rilab berishga va'da bergan, shuning uchun uning uyida edim. Ishlab o'tirib ikkimiz ham kech bo'lganini sezmay qolibmiz.

- Bugun menikida qola qol, birozdan keyin qahva damlayman, yana qayta ko'rib chiqamiz, - dedi Kumiko mehribonlik bilan.

- Xo'p, - dedim bu taklif moydek yoqib, chunki diplom himoyamga ikki haftagina qolgan, bugun ishimizni oxiriga yetkazishdan umidvor edim.

Kumiko doimgidek kuchugini sayrga olib chiqish uchun tayyorlay boshladi.

- Kel, bugun chiqmay qo'ya qolamiz, oyog'im tortmayapti, - dedim ko'nglim bir noxushlikni sezganday.

- Yo'q, Kiyoshi zerikib ketdi, axir, chiqmasak bo'lmaydi, - Kumiko doimgidek oyoq tirab olgach, noiloj unga ergashdim.

Biz yo'l bo'yi gaplashib bordik. Kiyoshi tinmay oldinga intilaverar, yulqinar, Kumiko esa uni mahkam tutishga urinardi. Kuchuk arqonni hadeb tortqilayvergach, g'ashim keldi.

- Kel, men ola qolay, qo'ling og'rib ketdi, - dedim mehribonligim tutib.

Aslida o'shanda qanday maqsadni ko'zlab bunday deganimni eslolmayman. Harqalay, yomon niyatim yo'q edi, biroq... Kumiko avval ikkilandi. Uzatilgan qo'lim havoda muallaq turarkan, xijolat chekdi, chog'i, ikkilanibgina arqonni tutqazdi. Arqon boshida ushlagich, unda qizil tugmacha bor edi, uni bosib turilsa, arqon uzayib ketmasdi. Tugmachani bosh barmog'im bilan qattiq bosib olgandim. Sayr ko'ngildagidek o'tayotgandi. Yo'ldan o'tish uchun oxirgi chorrahada to'xtadik, suhbatimiz qizg'in pallaga kirdi:

– Yurtingga qaytganingdan so'ng tezgina turmush qurib ketsang kerak? – dedi u kulib. Chunki bizda qizlar erta turmush qurishi haqida u bilardi.

– Oyim sovchilar kelib yotibdi, deydi, yana kim bilsin, – dedim hali taqdirim borasida bir narsa deyish qiyin degan ma'noda.

Shu tobda Kiyoshining hadeb oldinga intilaverishi rosti jahlimni chiqardi. Qani, qayergacha borarkansan, dedim ichimda. So'ng tugmachaning ustidan barmog'imni oldim. Kiyoshi oldinga chopdi, mashina balonining "g'iiiiyq" etgan tovushidan seskanib tushdik. Hammasi bir daqiqa ichida ro'y berdi. Nima bo'lganini anglolmay qoldik.

Men bunday bo'lishini kutmagandim. Kiyoshi mashina ostida yotardi, ingragan tovush chiqarardi, xolos. Qo'rqib unga yaqinlashdik, u o'lar holatda edi. Kiyoshi chorrahada to'xtashni, dumini likillatib kutib o'tirishni, mashinalar

yurishdan to'xtagach, so'ngra yurish kerakligini bilardi. Egasining yonidan hadeb ketavermasdi yoki Kumiko arqonning haddan tashqari uzayib ketishiga yo'l qo'ymasmidi... Kiyoshi bugun nima uchun oldinga irg'ishlayverгани sababini bilolmadim. G'alati xayollar qurshovida edim, kuchukka rahmim kelayotgandi va endi undan qutulganidan sira xursand emasdim.

Kumiko tamomila esankirab qoldi. Mashina egasining ikki bukilib qayta-qayta uzr so'rashiga ham parvo qilmadi. Bosh silkib qo'ydi, xolos.

– Balki chiqmaganimiz ma'qulmidi? – dedi Kumiko kuchugini uyga qo'llarida ko'tarib qaytarkan qayg'uli boqib. – Aytganingni qilsam yaxshi bo'larmidi.

Nima deyishni, nima deb taskin berishni bilmasdim. Qattiq xijolatda edim. Agar men arqonni bo'shatib yubormaganimda, bu hodisa ro'y bermasmidi? Men aybdor edimmi yoki... buni sira tan olgim kelmas, o'zi hadeb tortqilayvergach, nima qilishim kerak edi, derdim vijdonim oldida o'zimni oqlarkanman.

Uyi orqasidagi tog' etagiga ko'mib qaytgach, Kumiko kuchugi uchun uzoq ibodat qildi. O'zimni noqulay seza boshladim, ketish uchun otlanayotgandim, dedi:

– Haqiqiy do'st kishini qayg'usida yolg'iz qoldirmaydi.

Ichimdan zil ketdim. Men o'sha kun Kumiko bilan qoldim. U tinmay sake (mast qiluvchi

ichimlik) icharkan, Kiyoshini sotib olgan kun va u bilan bog'liq boshqa xotiralarni birma-bir eslab ko'zyosh qilardi. Men esa yonida o'tirardim, xolos. Butun tun uxlamadik, tong otar mahal meni kuzatgani chiqqanida, yig'layverib qizarib ketgan ko'zlaridagi og'ir bir qayg'uni ko'rdim.

3

Kumiko himoyam kuni kelmadi. O'zi taklif qilmaganidan keyin, uyiga ham borolmasdim. Diplom topshiriladigan kun yana ko'zim olazarak boqib, odamlar orasidan Kumikoni qidirardim. Shundan so'ng yurak yutib uyiga yo'l oldim. Eshik qo'ng'irog'ini uzoq bosib turdim. So'ng u ko'rinish berdi, mast edi. O'sha voqeadan so'ng o'zgarib ketgan, bir gapirib o'n kuladigan, xushchaqchaq Kumikodan asar ham qolmagandi. Sochlari hurpaygan, qaboqlari shishib, ko'zlari yanayam kichrayib ketgandek tuyuldi. Yuzida avvalgidek tabassum ko'rinmas, men dugonamni taniy olmay qolgandim.

– Ichkariga kirishga taklif qilardim-u, afsus... – dedi u boshini xam qilib.

Qiya ochiq eshikdan xonaning bir burchi ko'rinib turardi. Oyoq osti shisha, konserva idishlar, yana allambalo, gazeta va e'lonlar yozilgan qog'ozlarmi-yey, bari polda yoyilib yotardi.

– Birrovga kelgandim, keyingi haftada ketayapman, – dedim yutinib. – Senga rahmat aytmoqchiydim.

– Men rahmat eshitadigan nima qildimki... Aslida senga rahmat, ko'p shodon kunlarim sen bilan birga o'tdi.

– Nimalar deyapsan... – Kumikoga qaragan sarim yuragim ezilib ketmoqda edi. – Seni bu qadar yomon ahvolda ko'raman deb sira o'ylamagandim... O'zingni qo'lga ol, axir, u bir kuchuk-ku! Odamlar onasidan, otasidan judo bo'lib ham taqdirga ko'nikadi, sen kabi g'amga botmaydi.

Bu gaplarni aytish og'ir edi. U gaplarimni indamaygina eshitdi. Vaqt o'tsa hammasi joyiga tushib ketishiga ich-ichimdan ishonsam-da, Kumikoning bugungi holati bunga umid qilib bo'lmasligidan darak berib turardi. U hech narsa demadi. G'irt mast edi, gaplarimni tushundimi-yo'qmi, bilmayman. Sovuqqina xayrlashdi. Uni keyingi semestrga qoldirishdi, deb eshitdim.

Aeroportga kirib ketayotgan payt ortimga qarab-qarab qo'yardim. Undan darak bo'lmadi. Vatanimga qaytgach, tez orada internet orqali xat yozdim.

“Ohayo.

Kumiko, seni qattiq sog'inyapman. Sening ko'maging bilan ko'p narsaga erishdim. Barchasi uchun rahmat!

...O'zingni qo'lga olishing kerak, hayot davom etadi. Hamma narsaning davosi – vaqt...

Men seni yaxshi ko'raman.
dugonang Shona”.

Oradan ancha kunlar o'tib ketdi. Javob bo'la-vermagach o'sha xatni yana qayta yubordim.

So'ng undan bir maktub keldi. Unda shunday yozilgandi:

“Ohayo.

Shona, azizim, men ham seni qattiq sog'in-yapman. Shu yerdaligingda sen haqingda o'ylasam bo'ldi, yolg'izligim bilinmasdi. Sen ketgach, butkul huvillab qoldim...

...Kiyoshini tushlarimda ko'ryapman. U tushimga boshida gullardan chambarak taqib olgan holda kiradi. Itlar uchun ham jannat bo'lsa agar, u o'sha yerlarda yurgani aniq...

...Yoningda yaqinlaring bo'lmagach, hayotga qiziqish qolmas ekan. Men olg'a yurishga undaydigan yo'lchi yulduzimni yo'qotib qo'ygan-dekman...

O'zingni ehtiyot qil...

dugonang Kumiko”.

Shundan so'ng undan boshqa maktub olmadim. Ko'p xatlarim javobsiz qoldi. Unga nima bo'ldi ekan, deya o'ylardim. Kumiko behad tarbiyali qiz edi. Men sabab sevimli kuchugidan ayrildi, biroq gina qilmadi. Meni ayblashi mumkin edi, bir og'iz yomon so'z demadi. Hatto xatimga javob yozib, iltifot ko'rsatdi, u cheksiz sabrini namoyon qildi.

Afsusda edim. Bilib-bilmay dugonam hayotini barbod qilib qo'yganimni endi tushungandim. Men aybdor edim. Qalbimdan otilib chiqqan bir so'z tilimga ko'chdi:


“Meni kechir, Kumiko!”

MEN, BOBOM VA ONA BO'RI

Bu voqeaga ancha bo'lgan. U paytlar bir ovuldan ikkinchisigacha uzoq yo'l bosishga to'g'ri kelardi. O'shanda qish edi, tizza bo'yi qor kechib borardim. "G'arch-g'urch" etgan tovush o'zgacha huzur bag'ishlar, ba'zan ortimga o'girilib, qor ustida qolayotgan palapartish izlarimga qarab-qarab qo'yardim. Yetti yashar, g'o'r bola emasmanmi, qalbimda zarra qo'rquv yo'q, hech narsani o'ylamasdim. Boshimda quloqlarimgacha berkitib turadigan bog'ichli qalpoq, egnimda sovuq o'tkazmas qalin po'stin, ichi jun shim... Oyog'imdagi etikning qo'njidan kirib, yopishib qolayotgan qorga-da parvo qilmay borardim.

Oldimda past-baland tepaliklar uzoqdan ko'rinib turardi. "Shu qirdan o'tib olsam bo'ldi, u yog'i ovul boshlanadi" derdim o'zimga dalda berib.

O'shanda bobom bilan buvim meni olib qolib, onamni qo'shni ovuldagi bir kishiga turmushga berganiga endigina uch hafta bo'lgandi. U uyni bilmasdim, biroq ovulga yetib borgach, so'rab-so'rab onamni topib olishimga ishonardim. Uning qoshlari ingichka, ko'zlari qisiq, mayda o'rilgan sochlari belini o'pard, menga kulib qaraganida yuzidagi kulgichlari ko'rinib, yana ham chiroyli bo'lib ketardi. Onam dunyoda eng go'zal ayol, deya necha bor o'ylaganim rost.



Onam ketadigan kun men bir chekkada "to'plash" o'ynab o'tirardim. U meni oldiga chaqirib tizzasiga o'tirg'izgan, so'ng qucho-g'iga olib yuz-ko'zimga uzoq termulib qol-gandi. Men esa onamning boshidagi popukli telpagiga hayron boqib, chetlari jiyakli cho-poni ustidan bezak berib turgan rang-barang toshlarni tortib o'ynamoqchi bo'lganimda, bu-vim "Tegma, uzib qo'lasan, xunuk bo'lib qola-di" deb urishgandi.

Onam bo'lsa menga kulib, nimanidir aytmoq-chi bo'lgan, gapirolmay yutinib-yutinib qo'ygan-di. Nihoyat buvim "Kuyov kutib qoladi, bo'la qol endi" deganida, bir buvimga, bir menga qarab ol-gan onam lablarini tishlagan, so'ng yuzlarimdan o'pib uzoq bag'riga bosib turgandi. Onamning quchoq'idan chiqqim kelib, tipirchilaganimda u yanada qattiqroq quchib olgan, biroq hech nar-sa demagandi. O'tovdan chiqib ketayotganida ko'zlaridagi yosh donalari yerga dumalab-du-malab tushgani yodimda. Nega o'shanda onam-ni quchoqlab olmaganman, nega "ketmang" deb yalinib-yolvormaganman, balki ikki-uch kun o'tib, onam meni sog'ingach, qaytib keladi, deb o'ylagan bo'lsam kerak-da.

Keyin onamni boshqa ko'rmadim. U qaytib kelmadi. Sog'ingan paytlarim buvimga yalinar, "onamga olib boring" deb xarxasha qilardim. Buvim esa "Onang juda uzoqda, sen endi katta yigit bo'lib qolding, ko'nikishing kerak" derdi

urishib. Bobom esa boshqacha edi, meni sira xafa qilmasdi. Onam haqida so'raganimda, "Huv anavi qir ortida, ovul bor, onang o'sha yerda! Juda uzoq emas, yaxshi bola bo'lsang, bir kuni olib boraman" degandi. Biroq bobom va'dasini tezda unutdi.

– Bobo, bobo, onamga qachon olib borasiz? Men yaxshi bola bo'ldim-ku! – dedim bir kuni toqatim tugab.

Bir chekkada po'stinimga yamoq solib o'tirgan buvim gaplarimni eshitib, bobomga o'qrayib qaradi, so'ng:

– Uyat bo'ladi-ya, hali bir oy ham bo'lmadi, – dedi.

Bobom indamadi. Men bobomning yuziga termulib uzoq javob kutdim. Bobom bir so'z dermikan, dedim, u mum tishlab olgandi. Alamim keldi. O'sha damda, agar imkon tug'ilsa, onam ketgan ovulga o'zim borishga qaror qildim. "Axir men endi buvim aytganidek, katta yigit bo'lib qoldim-ku" deya o'yladim.

Bobom doimgidek ovga ketgan kun, suruvni ko'zdan kechirish bahonasida tashqariladim-u, qir bo'ylab yugurib ketdim. "Bobom ovdan hali-beri qaytmasligi aniq, buvim esa ortimdan kelolmaydi, oyog'i og'riydi, uzoq yo'lga chidamaydi", o'zimcha pishiq reja tuzgandim. "Onam meni ko'rib xursand bo'ladi, – o'zimcha xayol qilardim. – Meni topib keldingmi, katta yigit bo'lib qolibsang-ku, – deydi men bilan faxrlanib, so'ng peshonamdan o'pib qo'yadi".

Qancha yurdim, bilmayman, manzil sira ado bo'lmas, ovul ko'rinmasdi. Yastanib yotgan qir oppoq qorga belanib yotardi, tepalik esa hech yaqin kelmas, men u tomon yurganim sari ortga chekinar, xuddi mendan qochayotgandek tuyulardi. Oqliktan ko'zlarim toliqib ketdi. Oyoqlarim chalisha boshladi. O'tirgim kelar, "ozgina qoldi, yana ozgina yuray, keyin dam olaman" derdim hansirab.

Qancha yurdim, bilmayman, biroq yo'lim sira ozaymadi. Oppoq qordan ko'rpa yopingan qir osha yolg'izoyoq ketib borarkanman, bir payt ko'zim tinib yuztuban yiqildim. Qor ustiga yumshoq tushdim-u, biroq yuzim sovuqdan bo'zarib ketdi. Burnimni yengim aralash qancha artmay oqaverar, tinmay hansirardim. Turmadim, rosti turolmadim. So'ng osmonga qarab oldim. Oppoq bulutlar butun osmonni egallab olgan, quyosh mo'ralaydigan bir tuynuk ko'rinmasdi. Odatda bunaqa bulutlar qor olib keladi, biroq negadir qor yog'mayotgandi. Buvim, osmon bugun-erta tug'ishi aniq, homilador ayol kabi zo'rg'a ilinib turibdi, derdilar. Qancha yotdim, bilmayman, sovuq qotdim, oyoqlarim uvishib qoldi. Qo'llaringa tayanib asta qo'zg'aldim. Ust-boshimni qordan tozalagan bo'ldim.

Bobom: "Sovuq kunda muzlab qolmaslik uchun ham tinmay yurish kerak", – derdi. Ortimdagi izlarimga bir qarab oldim-u, so'ng old tomonga o'girilib ikki qadam bosganimni bilaman,

qarshimda turgan oq-qora tuk aralash, kulrang-tus bo'riga ko'zim tushdi. U qarab turardi, quloqlari ding, tumshug'iga qop-qora tugma qadab qo'yilgandek, peshonasiga qor uvoqlari yopishib qolgan, sarg'ish ko'zlari menga sinovchan bo'qardi. U kuch-quvvatga to'la edi, baquvvat ko'rinardi. Uning qor kabi mo'ynasi havasimni keltirar, mayin tuklarini barmoqlarim orasiga olib silagim, qornida yotib erkalangim, quchoqlab olgim kelardi. Shu tobda hayvondan bo'lsa-da, bir mehr istardim.

Bobomdan eshitganim bor: "Bo'rilar yirtqich bo'ladi, rahm-shafqat nima, bilmaydi, Marayimning o'ttizta qo'yini bo'g'izlab ketibdi-ya", – degandi bir kecha. O'shanda bo'g'izlash nimaligini tushunmaganman-u, o'ldirish bo'lsa kerak, deb o'ylaganim rost.

Yuragimga qo'rquv oraladi, uning ko'zlariga termuldim, bu o'tkir nigoh ortida raqibini mahv etish va qorin to'yg'azishdan bo'lak ma'no ko'rmasdim. "Birdan tashlanib qolsa-ya, nima qilaman?" degan o'y meni sarosimaga soldi, "po'stinimga o'ralib olsam, balki tishi o'tmas". Shu ilinj qalbiga umid bag'ishlardi. Tanam sovuqdanmi yoki qo'rquvdanmi, bilmayman, titray boshladi.

Bu on bo'ri negadir hech bir harakat qilmasdi, boshidan tortib oyog'igacha po'stin kiyib olgan men, bir kichkina bolachaga tajovuzkorona nigoh tashlab turardi, xolos. "Balkim, tayyorgarlik

ko'rayotgandir, deya o'yladim. Nahotki, onamning oldiga endi borolmayman, nahot bobomni, buvimni qaytib ko'rolmayman".

Bu uchrashuv bir necha soniya davom etdi.

– Qadamboy! Qadamboy! Hey, o'sha buvingni... – bu tovush meni qo'rqinchli tushdan uyg'otib yuborgandek bo'ldi. Bu ovozdan muzlab borayotgan tanamga qon yugurdi go'yo. Ortimga o'girildim.

– Bobo! – dedim yig'lamoqdan beri bo'lib, – Bobo! – dedim takror va takror.

Bobom meni epchil bir harakat bilan oti ustiga mindirib oldi, (nimadir esimga tushib) ilkis ortga qaradim. Bir necha qadam narida turgan sariqko'z bo'ri g'oyib bo'lgandi.

– Nega bunday qilding? Nega ketib qolding? Bugun-erta o'zim olib bormoqchi edim, sabr qilishing kerak edi? – bobom yo'l-yo'lakay tinmay tanbeh berib ketarkan, qulog'imga bu gaplar kirib-kirmay borardim.

– Agar yana qor yog'ib, izing bosilib qolgani-da nima bo'lardi, bilasanmi, seni ikki dunyo to-polmasdim.

– Bobo, men bo'ri ko'rdim, – dedim sekingina.

– Xayriyat, baxtingga qor yog'madi, – dedi bobom gapimga parvo ham qilmay. – Nima?! – dedi keyin otning jilovini tortib. – Qayerda?

Men bobomni mahkam quchoqlaganicha, qimir etmasdim, xayolimda hamon o'sha bo'ri jonlanar, uning sovuq nigohlari ko'z o'ngimda qotib qolgandek edi.

– O'sha, siz meni topgan yerda.

– Men hech narsani ko'rmadim-ku, – dedi bobom hayron bo'lib. So'ng otning biqiniga etigi bilan niqtab qo'yarkan, ot yo'rg'alashda davom etdi.

– Xudo mehribon, seni qaytib beribdi. Ko'rdingmi, uydan beso'roq chiqib ketish nima oqibatlariga olib kelishini, – bobom kuyinib gapirardi.

– Bobo, u ona bo'ri edimi yoki ota bo'ri?

– Bilmayman, ona bo'ri bo'lsa kerak, senga rahm qilibdi.

– Ona bo'ri ham ov qiladimi?

– Ha, bolalari go'shtga kirgunicha ota bo'ri, so'ng ona bo'ri ham ovga chiqadi.

– Ona bo'ri ham bolalarini yolg'iz tashlab ketadimi?

– Ha, boshqa nima qiladi? Yemish topib kelishi kerak-ku!

– Agar qaytmasa-chi? Unda nima bo'ladi? Bo'richalarni bobosi bilan buvisi asrab oladimi?

– Bo'rilarining bobosi, buvisi bo'lmaydi.

Suhbatimiz bo'ri mavzusida to manzilga yetkunimizcha davom etdi. Onam ketgan ovulga shom qorong'usida kirib bordik. Onam ovozimni eshitiboq, o'tov ichidan yugurgilab chiqdi. Otning ustidan ikki qo'llab ko'tarib olarkan, bag'riga bosdi, yuz-ko'zlarimdan o'pdi.

– Qadamboy, Qadamboyim meni! – dedi erkaklab.

– Ona, men bo'rini ko'rdim, – dedim, o'tov ichiga kirganimizdan so'ng.

Onam ko'zlari katta-katta bo'lib ketdi.

– Qo'rqmadingmi? – dedi onam bilan birga yashayotgan amaki suhbatimizga qo'shilarkan.

– Yo'q, – dedim men boshimni sarak-sarak qilib. Aldayotgan bo'lsam-da, meni qo'rqoq deb o'ylashlarini istamasdim.

– Voy tovba, o'zimni botir bolam, – dedi onam meni qattiqroq bag'riga bosarkan.

– Qoyil, zo'r yigit bo'psan, – dedi amaki ham.

Bobom nega ko'rmadi ekan, balki bobomning xira ko'zlari oppoq qor orasida och kulrang bo'ri-
ni ilg'amagandir, deya o'zimcha taxmin qilardim.
Yoki mening ko'zimga ko'ringanmikan? Yo'g'-ey!

Amakining aytishicha, shu yaqin orada bir kulrang bo'ri izg'ib yurganini u ham ko'rgan.

– Biroq juda epchil ekan, ikki safar ham otishga ulgurmadim, – dedi amaki qo'llarini bir-biriga urib, hafsalasi pir bo'lgandek.

Men bo'ri bolalariga achinardim, qachonlardir ovchilar ona bo'rini otib qo'yishsa, bolalari nima qilishadi, bobosi, buvisi bo'lmasa, qayerga borishadi, degan savollar qiynar, ich-ichimdan ona bo'riga omonlik tilardim.

O'QITUVCHINING SUKUTI

Yigitni or o'ldirar, tuyani – sarbon.

(O'zbek xalq maqoli)

Uyga kech soat o'nga yaqin kirib kelgan Absamad domlaning ikki yuzi hatto peshonasigacha olov kabi qip-qizarib ketgan, chap yuzida allaqanday izlar o'rni bilinib turardi. Hovliqqancha, peshvoz chiqqan xotiniga bosh ko'tarib qaramadi ham. To'mtayib ichkarilarkan, mast kishi kabi to'g'ri yo'lda bir-ikki turtinib ham ketdi.

– Yaxshi keldingizmi, dadasi? – xotini yana qayta so'radi, erining orqasidan hayron boqib.

– Senga nima? Ishingni qilavermaysanmi?! – Absamad domla g'oldiranib qo'ydi.

Xotining ko'ngli og'ridi, ammo sezdirmedi. Erining tush payti qo'ng'iroq qilib, “Bugun kechroq boraman, majlis bor” degani yodiga tushdi. Ovqat suzib kelib o'tirdi, o'rab qo'ygan choynak ustini ochgach, to'nkarilgan piyolani o'ngarib choy quydi. Shu tobda onasini uxlamay qiynayotgan nabirasi bobosining kelganini bilib, paypoqchan yugurgilab chiqdi.

– Menga nima opkeldingiz, bobojon? – dedi tizzasidan quchoqlab olarkan.

Adsamad domlaning battar jini qo'zidi, uch yashar nabirasining do'mboq qo'lchalaridan e'tiborsizlik bilan ushlab, nari surarkan:

– Olmaysanmi buni? – xotiniga o'shqirdi.

Xotini sal narida turgan keliniga ko'z qirini tashladi-yu, nabirasining qo'llaridan ohista tutganicha o'zi tomon tortdi.

– Kel, opoqqizim meni. Bobongni boshi og'riyotgan ekan, ertaga olib kelar... Hozir kirib uxlagin, xo'pmi? – dedi yalingannamo.

Qizaloq ko'chadan doim shirinlik ko'tarib keladigan kishisining siltab tashlashini kutmagan, shekilli, buvisining gapidan keyin alam qilib yig'lab yubordi. Kelini ikkilanib yaqinlashdi-da:

– Assalomu alaykum, – dedi sekingina. So'ng yig'layotgan qizchasini quchoqlaganicha ildam odimlab ichkariga kirib ketdi.

Shuni kutib turgan xotini dedi:

– Tinchlikmi, dadasi? Nima bo'ldi o'zi?

Tabiatan yumshoqfe'l ayol, muloyim gapiradi. Halimlik bilan so'raganida, domla erib ketadi, darrov javob berishga tutinadi. Biroq bu gal unday bo'lmadi. U savolni-da eshitmadi. Domlaning g'azabi zumda so'nadigan emasdi, bu yerda g'urur-or masalasi bor edi. Xontaxtaga tayanib so'ri chetida omonatgina o'tirarkan, qovog'idan qor yog'ar, tinmay pishillardi. Dasturxon ustidagi noz-ne'matga bosh ko'tarib qaramadi ham.

* * *

Oliygozni bitirgach, Absamad domla tug'ilib o'sgan qishlog'iga qaytdi. Ota-onasining yolg'iz boquvchisi emasmi, eng avval qishloqdan ish izladi, o'zi o'qigan maktabga bordi. Institutni bitirib qaytganini eshitgan direktor darrov ishga qabul qildi. Yigit kishi eplaydi, dedi-yu, kattaroq sinfga bosh qilib qo'ydi.

O'smirlik – qiyin davr, katta sinf o'quvchilariga rahbar bo'lish oson emas. Domla huda-behudaga asabiylashadigan bo'lib qoldi. Bir safar o'zini tutolmay, bitta o'quvchisining yuziga shapaloq tushirdi. Mushtdek bola, hayiqmay gap qaytarib tursa... So'ng giribonidan tutdi-yu, sudragudek qilib, xonadan chiqarib yubordi.

– Darsimga boshqa qadamingni bosma, kiritmayman, – dedi titrab-qaqshab. Biroq ozroq vaqt o'tib g'azabi so'ndi, qilgan ishidan afsuslandi.

Ertasiga o'quvchisi kutganidek onasini boshlab keldi. Onasi direktorga kirdi. Maktabni boshiga ko'tardi, o'qituvchi deganning obro'yini bir pul qildi...

Absamad domla o'ttiz yil maktabda ishlagan bo'lsa, kuyunib-kuyunib dars o'tdi. Alamini ichiga yutib-yutib, oxiri yurak og'rig'iga yo'liqdi. Biroq shifokorga borganida, “o'quvchingizman” desa, yosh boladek suyunib ketardi. Ko'cha-ko'yda to'xtab, u-bu kim salom bersa, “o'quvchim”, deb faxrlanib qo'yardi. El orasida hurmat topdi. O'g'li ham otasiga havas qildimi, izidan bordi.

O'tgan yillar davomida mansab pillapoyasidan astalik bilan yuqoriladi. Avvaliga mudir, keyin o'rinbosar bo'ldi. Shogirdlaridan biri "katta" lavozimga o'tirgach, Absamad domlani qo'yarda-qo'ymay maktabga direktor qilib tayinladi. Hurmatini joyiga qo'ydi. Absamad domla yaxshi direktor bo'ldi. Maktab uchun yelib-yugurdi. Obro' uchun talashib-tortishdi. Bir kuni shogirdi ishdan olindi-yu, bari chap-pasiga aylanib ketdi.

Yaqindagina boshliq bo'lgan bu "katta" juda qattiqqo'l chiqdi. "Plan-plan" deydi, xolos, boshqa narsani bilmaydi. Birinchi terim dedi, xo'p dedik, maktabda birorta o'quvchi qolmadi, ikkinchi terim dedi, xo'p dedik, birorta o'qituvchi qolmadi... katta-yu kichik dalaga chopdi. Biroq viloyat plani hech to'lay demadi, yana yetmagandek bir siqim paxta qolmagan dalaga "hamma chiqsin" degan buyruq berdi. Absamad direktorning turib-turib g'ashi keldi.

– Ikki-uch oydan beri o'qish yo'q, hamma ko'sak terib dalada izg'iydi. Bolalar bilim olishi kerak-ku! – dedi.

"Katta" gap tushunmaydigan chiqdi.

* * *

– Dadasi, ovqatingizmi yemaysizmi? – dedi xotini yana sekingina.

Mayin eshitilgan bo'lsa-da, biroq domlaning jahli chiqdi.

– Kirib yotavermaysanmi? Yegim kelsa, yeyman, – dedi jerkib.

So'ng iz tushgan yuzini kaftining orqasi bilan asta silab qo'yarkan, xo'rsindi. Yuzi emas, yuragi og'riyotgandi. Hammaning oldida sharmanda bo'lgani, tarsaki yegani yodiga tushib, yana qizarib ketdi. Yutindi. Ori keldi. Ichida tanish-bilishlarning yuziga endi qanday qarayman, degan o'y o'tdi. Ko'z oldida bugungi voqea qayta jonlandi:

– Nimaga dalaga chiqmading? Nega odamlaringni chiqarmading? – “katta”ning yuz-ko'zidan olov sachrab, savol-javob qilarkan, xonada yigirma-o'ttiz chog'li kishi o'tirar, birma-bir turg'azmoqda edi.

– Aziz Akbarovich, – dedi Absamad domlanning jur'ati yetib, – ikki oydan beri hamma dalada, o'qish yo'q, programmadan ortda qolib ketyapmiz...

Bu gapdan “katta”ning battar jini qo'zidi.

– Sening programmang bilan mening nima ish bor. Paxtani kim teradi? Planni kim to'ldiradi? Aaa? – og'zidan tupuk sachrab o'shqirardi. Bo'yin tomirlari bo'rtib-bo'rtib ko'rinardi.

– Biz ... – domlanning titroq aralash chiqqan so'zi bo'g'zida qoldi.

– Nima sen? Nima sen, dedim? Hozir senlarni deb, boshliq oldida qay ahvolga tushganimni bilasanmi? – “katta”ning g'azabi qaynadi. O'zini tutolmay qoldi.

Bexos kelib tushgan tarsakidan Absamad domlaning ko'z oldi qorong'ilashib gandıraklab ketdi. Shuncha odam oldida... kutmagandi. Yosh boladek yuzini ushladi-yu, biroq o'sha tobda yuragining jarohatlanganini sezmedi. Yomon ish qilib qo'ygan kishi kabi bosh egib turaverdi.

“Katta” qilgan ishidan bir zum afsuslandi, biroq sezdirmadi. Urishishda davom etdi.

– Ertagayoq arizangni yoz! – dedi jahl bilan.

Hamma jim edi. Tarsakidan so'ng yig'ilganlarning dami ichiga tushib ketgan, pashsha uchsa bilinardi. Domla qolgan gaplarni eshitmadi. Sekin-asta ta'sir etadigan dori kabi, tarsakidan so'ng quloqlari bitib qoldi. Bir chekkada qizarib-bo'zarib o'tirardi.

Yig'ilish qachon tugaganini-yu, qanday tashqariga chiqqanini eslolmaydi. O'rinbosari bilan xayrlashgani elas-elas yodida. “Shuncha odam oldida...” degan o'y bir zum xayolidan nari ketmas, yuragi siqib borardi.

Xotining turib ichkari kirib ketganini ham payqamadi. Dam-badam xo'rsinib qo'yarkan, ertaga ko'chaga qanday chiqishi haqida o'ylab ezilardi. “Teshik quloq eshitadi, ertaga hamma shu haqida gapiradi”, o'ziga-o'zi pichirlab qo'yardi. Xontaxtaga tirsagini tirab beholgina boshini quyi egdi. Ko'zlari tinib ketdi. Uh tortdi. Zo'rg'a nafas olarkan, ich-ichidan kemirayotgan alam, borlig'ini o'z domiga olayotgan, or-nomus o'tida qovurayotgan edi.

“Nima degan odam bo’ldim? O’ttiz yil o’qituvchilik qilib?..” o’ylardi ichida. “Odamlar nima deydi?!” Nafasi bo’g’a boshladi. Hansirardi. Oqish ko’ylagining urinib qolgan yoqasini kattaroq ochdi. Atrofga olazarak boqdi. Shu choq sal nariroqda, dasturxonning bir chetida turgan yog’och sopli pichoqqa ko’zi tushdi, qo’llari titradi, so’ng musht bo’lib tugildi. G’azabdan ko’zlari olayib ketgan, “endi baribir, endi menga baribir” derdi hansirab.

AYI

1

“Ayi” xitoy tilida “xola” degani. Bu yerda yotoqxonada farroshini shunday chaqirishadi. Men uni birinchi marta qizlar qavati yo‘lak boshida uchratganman. Ensiz, biroq uzun yo‘lakni zo‘r berib artayotgandi. Qo‘lidagi yog‘och uchiga o‘ralgan latta jiqqa ho‘lligi uchunmi, ortidan pol yaraqlab qolarkan, ora-sira to‘xtab qaddini rostlar, ko‘kragi barobar yog‘ochga tayanganicha ortga nazar solib qo‘yardi.

...Qaddi biroz muk, egnida shildiragan rangpar kurtka, qora duxoba shimi uniqib ketgan, oyog‘idagi yaltiroq chizikli, yo‘l-yo‘l oqish poyabzalning ham u y yer-bu yeri titilgan, kiygulik siyog‘i qolmagandi, hisob.

Ikkinchi bor lift ichida uchratib qoldim. Shunda uni yaqindan ko‘rdim: hech kim uni ellikdan oshgan demaydi. Yonog‘i xiyol bo‘rtiq, ingichka labi bo‘yoqchan, qoshiga bilinar-bilinmas qalam yurgizilgan, qalin surkalgan upa yuzidagi ajinlarini yashirolmaganidan sun‘iy bir qiyofa yasagandi. To‘rt g‘ildirakli katta ko‘k bochka ichidagi yarimlagan suvga pollattalarni birin-ketin chayayotgandi. “Kiraver” dedi, qo‘li bilan imlab. Erta bahor, hali izg‘irin tarqab ulgurmagan, biroq lift ichi iliq edi. O‘shanda Xitoyga kelganimga endi-

gina bir hafta bo'lgan, yotoqxonamiz yon-atrofini uncha yaxshi bilmasdim. Gapni nimadan boshlashni bilmay o'ylanib qoldim. Oltinchi qavat tugmasini bosgach:

– Qayerda halol oshxonalar bor? – so'radim ikkilanib.

Xitoychada talaffuz muhim, agar biror harfni noto'g'ri aytsangiz, boshqa ma'no anglashiladi. Haytovur, u meni tushundi, “xitoy tilida yaxshi gapirar ekansan” deb maqtab ham qo'ydi hatto. Yangi bir tilni o'zlashtirayotgan talaba uchun eng zaruri o'ziga bo'lgan ishonch. Men Ayi bilan suhbatlasha turib shuni angladim.

So'ng u mendan: “Halol nima?” – deb so'radi.

– Musulmonlarning oshxonasi, – dedim fikrimni boshqacha ifoda etolmay.

– Ha, bilaman-bilaman, – dedi u shoshib.

Qo'llaridagi rezina qo'lqop anchayin katta edi. Qizarib ketgan burnini yelka aralash artib olarkan, qo'lqop tushib ketmasligi uchun qo'lini yuqori ko'tardi.

– Shu yaqin orada “Nepal” oshxonasi bor. Eshigi tepasiga belgi qo'yilgan. Oshxonadan chapga yursang, kichkina do'kon keladi. U ham belgili, – tushuntirdi Ayi.

Bu uchrashuv bizni bir qadar yaqinlashtirdi. Keyin men uni qayerda ko'rsam, to'xtab salom beradigan, u ham o'z navbatida hol-ahvol so'raydigan bo'ldi. Bu yaqinlikdan men manfaatdor edim. U bilan suhbatlashib xitoy tilida-

gi nutqim o'smoqda edi. Bir gal unga kaftim-dakkina, Registon tasviri tushirilgan, tagida "Samarqand" degan yozuvi bor hadya berdim. U biram suyundiki, xuddi men unga dunyoning bir bo'lagini sovg'a qilgandek, egilib, qayta-qayta rahmat aytdi. Shundan so'ng, u har kuni mendan xabar olib turadigan, yo'lakni tozalayotgan mahal xonam eshigigacha artib ketadigan bo'ldi. U ko'rimli bo'lmasa-da, mehribon va oqko'ngil ayol edi.

– Qizaloq, shu yoshingda o'zga bir begona yurtga kelishga qo'rqmadingmi? Onang seni qandoq qo'yib yubordi-ya, – derdi mehribonlik bilan.

– Bilmasam, – uning gaplaridan hayron bo'lardim.

2

O'rtahol oilada o'sganman, bir akam va bir opam bor. Dadam o'qituvchi, onam tarbiyachilik qilardi. Qishlog'imizdagi bittagina bog'cha ham yopilgach, onam ishsiz qoldi. Dadamning olgan maoshi ro'zg'or xarajatlaridan ortmasdi.

– O'qituvchidan kim rozi bo'lgan. Ikki dunyo o'qituvchining kosasi oqarmaydi, – onam yo'qchilik jonidan o'tib ketgan paytlari shunday deb javranardi. Chunki ro'zg'orda doim nimadir yetishmasdi.

– Shukr qilsang-chi, – derdi dadam jahli chiqqan bo'lib. – Odamlarda shu ham yo'q, – u xon-

taxta ustidagi dasturxonda turgan bir bo'lak nonga ishora qilarkan.

– Noshukrlik qilib nima qilibman, ichimdagini aytyapman-da, nima endi gapimga ham xo'jayinlik qilasizmi? – oyim xamir qo'llarini bir-biriga ishqalarkan, qo'lga yopishgan xamir uvoqlari duv-duv to'kildi. So'ng yana xamir mushtlashga tusharkan, dadam nojo'ya gap aytishdan o'zini tiyib, yonida yoyilib yotgan chophonini qo'lga olardi-da, yelkasiga tashlab chiqib ketardi.

Oilamiz byudjeti katta emasligini yaxshi bilardim. Shuning uchunmi, hatto bolaligimda ham “Uni olib bering, buni olib bering” deb xarxasha qilganimni eslolmayman. Universitetda ham tirishib o'qidim. Kursdoshlarim bilan har yerga bormaganman, pulim kundalik ehtiyoj uchun zo'rg'a yetardi. Men doim ota-onamni qiynab qo'ymaslik haqida qayg'urardim.

“Imkoniyat tug'ildimi, foydalanish kerak!” Bu shiorim edi, uni yondaftarchamning bosh varog'iga katta harflar bilan jimjimador qilib yozib qo'ygandim. Har gal shu yozuvga ko'zim tushganida, o'z-o'zidan shijoat paydo bo'lar, astoydil bo'lishga urinardim. Xitoyda o'qish uchun grant yutib olganimdagi quvonchimni tasvir-lab berishim qiyin. Chunki kambag'al bir oila farzandining chet elda o'qishini na otam va na onam tasavvur qila olardi. Bu xabar ular uchun

ham quvonchli bo'ldi. Men har daf'a ularning quvonishlarini istardim.

Xitoyga kelganimga ko'p bo'lmay, yaqinlarim sog'inchi qiynay boshladi. Tabiatan ta'sirchanman va bu aynan qiyn vaziyatlarda pand beradi. O'sha kuni "Inson va jamiyat" fani o'qituvchisining gapi yuragimga og'ir botdi.

– O'zbek talabalari bilan ishlash qiyn, – dedi u sovuqqonlik bilan.

– Nega? Nega unday deysiz? – dedim jahlim chiqib.

Gapirish uchun ruxsat so'ramay o'rnimdan turganimni ko'rib, ustozning qoshlari chimirildi:

– Ular ko'p o'ylashadi, lekin o'rganishga harakat qilishmaydi, – dedi zaharxandalik bilan. So'ng, Konfutsiydan sitata keltirarkan, – bundaylar xavfli toifaga kiradi, – degani ortiqcha bo'ldi.

Men og'iz juftladim, besh qo'l barobar emas, demoqchi bo'ldim. Biroq mavzu boshqa yurt talabalari tomon burildi. Alamim ichimda qoldi. Darsdan chiqib to'g'ri yotoqxonaga kelib, xonam eshigini tambalagach, divanga o'zimni otdim. Ho'ng-ho'ng yig'layotgandim, shu payt eshik taqilladi. Ayi ekanini bilardim, undan boshqa yana kim ham mendan xabar olgani keldi. Ko'zlarimda yosh bilan eshik ochdim. U meni bu holatda ko'rib hayron bo'ldi, so'ng nega yig'layotganimni so'radi.

– Onamni sog'indim, – dedim hiqillab.

U kuldi:

– Hey, qizaloq, shunga ham yig'laysanmi, bir yil nima degan gap, birpasda o'tadi-ketadi, – dedi sochlarimni silab.

Uning ko'zlari mehrga to'la edi. Farrosh bo'lsa-da, ona edi u. Uning ham barcha onalar kabi mehribon qalbi bor ekanini shu dam his qildim. So'ng u divan chetiga omonatgina o'tirib, bolalari haqida so'zlab berdi. Egizak qizlari fabrikada ishlab yurganida, yer qattiq silkinib, bino ostida qolib ketishgan ekan.

– Nogiron bo'lsa ham, jonlari omon qoldi, – dedi u xo'rsinib.

Ko'zlari namlandi, nigohini yerga qadadi. Uning dardi meni ham qayg'uga soldi. Yupatishni xohladim, og'iz juftladim, qani bir so'z topolsam...

Oraga cho'kkan jimlik meni tashvishlantira boshladi. O'rnimdan turib divan boshidagi yo'l-xaltamga qo'l soldim. Ikki oydan beri avaylab yurganim, o'zim bilan olib kelgan qurtavanning oxirgi to'rt donasini olib unga uzatdim. U bir qo'limga, bir menga qarab turdi-da:

– Ichida nimadir bormi? – dedi.

Jilmaydim.

– Shimasiz, – dedim og'zimga ishora qilib. So'ng bittasini og'zimga solib ko'rsatdim.

U ham shunday qildi, yoqmadi, shekilli, yuzlari burishib ketdi. So'ng:

– Juda chuchuk ekan, – dedi.

Biroz ranjidim, ammo u bilan yaqin bo'lib qolgandik. Ayining yo'qlab kelishlari, sog'inch tirnayotgan qalbimga malhamdek edi.

3

Sentyabr. Yangi semestr. Universitetda yangi talabalar. Havo harorati biroz pastlagan, bemavrid yomg'irning shitir-shitiri, qushlarning gala-gala bo'lib uchib yurishlari-yu, onda-sonda etni junjiktiradigan shamollar kuz kelganidan darak bermoqda edi. Yaproqlar tusini o'zgartira boshlagan kuz kunlarining birida universitet yotoqxonasida yangi talaba paydo bo'ldi. Oq-sariqdan kelgan, ko'rimli yigit. Ko'rdim-u bir zum ko'z uzolmay qoldim. Shu tobda o'zga-cha bir tuyg'uni his qildim. Xayolimda allatovur manzara jonlandi: keng adir, qishlog'imdagidek lolazor qo'ynidaman, shabboda sochlarimni o'ynoqlaydi, ko'ylagim etagi hilpiraydi. Hali bu qadar yoqimli hisni tuymagandim. Qalbimda o'z-o'zidan sevinch tug'yon urdi, tushunmayman, bo'g'zimga g'alati bir narsa tiqilgandek... yig'i keldi. Nimalar bo'lyapti menga?

Nigoh uzmay qarab turganimni sezib qoldi. Darrov ko'zlarimni olib qochdim, biroq endi kech edi, u men tomon kela boshladi. Yuragim urishi tezlashdi. Garchi bu yerdan tezroq ketishim kerakligini anglasam-da, oyoqlarim bo'ysunmasdi.

- Yaxshimisiz? - dedi u qo'lini uzatarkan, - Mansurxon.

- ...Malika, - dedim arang.

- Xursandman, - dedi u kulib.

Tilim aylanmay qoldi. Jilmayishga urindim, biroq eplolmadim.

- Nechanchi qavatda turasiz?

Tutila-tutila savoliga javob qaytardim.

- Mayli, yana ko'rishamiz, - dedi u hafsalasi pir bo'lganday.

U men haqimda nima deb o'yladi ekan? Shu savol tinchimni o'g'irladi. Xonamga qaytdim. O'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Kitob o'qishga tutindim - bo'lmadi. Kiyim-kechaklarimni tartiblash bilan chalg'imoqchi bo'ldim - o'xshamadi. Yuragim qinidan chiqib ketgudek, diqqatim ortib boraverardi. Shu on eshik taqilladi, so'ng Ayi ko'rindi. Quvonib ketdim. U mendan hol-ahvol so'ragani kelgandi. Unga jilmayib turib, yig'lab yuborganimni o'zim ham bilmay qoldim.

- Senga nima bo'ldi, qizaloq? Nima gap, aytsang-chi?! - dedi tashvishlanib.

Men yig'lardim, xolos. Ayi meni bag'riga bosdi. Ilk bor begona ayol bag'ri onam quchog'idek taftli ekanini his qildim. Ko'nglim taskin topgandek tipirchilashdan to'xtadi. So'ng ko'zyoshlarimni artib, unga hislarimni so'zlab berdim. U:

- Sevib qolibsanku, qizaloq! - dedi kulib.

Men yerga qaradim, labimga tabassum yugurdi.

4

O'zbek talabalari bir yotoqxonada turishadi. Biroq universitetda dars soatlari har xil, shu sabab, ko'rishib qolish amrimahol. Men endi uni qayerda uchratishim mumkinligi haqida o'ylay boshladim. Dars qila turib xayolim qochar, daftarim qatiga beixtiyor uning ismini yozib qo'yardim. So'ng birov ko'rib qolmasin deb ustma-ust chizg'ilab tashlardim. Yana, yana yozardim... darrov ustidan chiziq tortardim. Bu odat menga cheksiz quvonch bag'ishlardi. Uni o'ylash yoqimli edi. Har tong uni ko'rish niyati bilan uyg'onardim go'yo.

Bugun ham birinchi qavat zina yonida uni uzoq kutib turdim. Lift qarama-qarshi tomonda, kirib-chiqqan bemalol ko'rinadi. Zinapoyaga intiq qarayman, liftga umid bog'layman. Ko'rib qolamanmi deyman-u, kutaman. Na zina, na lift uni olib tushadi. Qancha vaqt o'tdi, bilmayman. "U vaqtlitiroq ketgan!" Nihoyat umidim so'ndi.

Yotoqxonada eshigidan endigina o'tganim hamono, ortimdan tanish ovoz eshitildi.

- Malika!

Ismim shu qadar yoqimli eshitildiki... O'girilib qaradim, ko'zlarimda quvonch porladi, o'z-o'zidan jilmaydim.

- Ortingizdan sizmisiz yoki boshqami, deya biroz ikkilandim. Uzun ko'ylagingizdan tanidim, dedi u men tomon kelayotib.

Yo'l-yo'lakay u gapirib borar, men tinglardim, xolos. Gohi-gohida savollariga javob qaytarib qo'yardim. Dengizning shovullashimi, quyoshning iliq, yoqimli tafti yoki yomg'irdan keyingi tuproq bo'yimi, bilmadim, nimalarnidir his qilardim.

Universitet ostonasidan o'tiboq xayrlashdik. Chunki dars xonalarimiz boshqa-boshqa binoda edi. Bo'm-bo'sh sinfxona oldida turib, shirin xayollarim bir zumda to'zg'ib ketdi. Ikkinchi paraga ham kechikkanimni tushundim. Uni kutayotganimda nahot o'ylamadim? O'zimni koyidim, biroq zumda barini unutdim.

Kutubxonaga yo'l olarkanman, kunim yana uni o'ylash bilan besamar o'tishidan tashvishda edim. Kitob qo'llarimda turgan bo'lsa-da, ko'zlarim harflar shaklini tomosha qilardi, xolos. Ketishga chog'landim. Xayolimda yana u, yana uni ko'rish umidida universitet hovlisidan o'tib borarkanman, nigohlarim uni qidirayotganini sezib qoldim.

Yotoqxonaga yaqinlasharkanman, aqlim emas, qalbm uni uchratish ilinjida edi. Nahotki, ko'rmasam... Yo'q, u zina oldida turardi. Kim bilandir suhbatlashayotgandi. Nigohlarimiz yana to'qnashdi, "Menga nimalar bo'lyapti?" – tushunib-tushunmay yaqinlashdim. So'ng bosh silkib o'tib ketayotganimda ham ruhimda g'alati tuyg'ular kezinardi.

5

Bu tong meni Ayi uyg'otdi. Eshik taqillashidan uyg'onib ketdim, yugurgilab borib eshikni ochdim.

– Bezovta qilmadimmi? – dedi Ayi xijolatomuz.

– Yo'q! Soat nechchi bo'ldi? Eh xudoyim! – beixtiyor baqirib yubordim. – Uxlab qolibman-ku!

Oqshom allamahalgacha uni o'ylab o'tirib, ko'zlarim qachon uyquga ketgani yodimda yo'q.

– Ha, mayli. Shunchaki sendan xabar olgani kelgandim, – dedi Ayi mening u yoqdan-bu yoqqa chopayotganimni ko'rib.

Men unga xayr, deyishga ham imkon topolmadim. Palapartish kiyinib, oyog'imni qo'limga oldim-u universitet tomon yugurdim. Yetti daqiqalik yo'l. Bugun juma, xitoy tili grammatikasidan imtihon bor edi. “Eh Xudoyim!” Halloslagancha sinfxona eshigini o'zimga tortdim. Auditoriya ichi bo'm-bo'sh, hisobi. Ikkitagina bola o'tirar, tepasida o'qituvchi qaqqayib turardi. Ikkisi ham men kirgan payt o'rnidan turdi-yu, ustozning qo'liga imtihon varag'ini topshirib chiqib ketishdi. Men qancha bahonalar to'qishga urinmay, o'qituvchi so'zlarimni eshitishni-da istamadi.

Menga nimalar bo'lyapti, o'zi? Bu ketishda orzularing nima bo'ladi? Aqlim tergaydi, qalbim esa bo'ysunmaydi. Bora-bora baholarim pastlay boshladi. Ko'p dars qoldirganim bois, dekanatga chaqiruv qog'ozi keldi.

Shunga qaramay, ertasi kun u bilan do'kon aylanishga bordik...

Erta tongda xonamga Ayi kirib keldi. U bilan kecha birga tushgan suratlarimizni tomosha qilayotgandim.

– Mana o'sha yigit, – dedim tabassumimni yig'ib ololmay, unga jilmaygancha telefonimni uzatarkanman.

– Qiz bolaning sevgisi aqlsiz bo'ladi, qizaloq. Qadringni baland tut, – dedi u rasmga bir qur ko'z tashlab.

Menga qo'shilib suyunmayotganidan hayron bo'ldim. Yuzim tundlashdi.

– Ota-onang senga ishongani uchun yolg'iz yuboribdi, – dedi.

Jahlim chiqdi.

– Nimalar deyapsiz, men yomon ish qilganim yo'q, – dedim gapini bo'lib. – U bilan birga aylandik, rasm tushdik, so'ng u meni kuzatib qo'ydi. Boshqa hech nima.

Ayi menga qarab turdi-da:

– Yana uchrashasiz, keyin yana. Barchasi shundan boshlanadi, – dedi so'ng bir dam tin olib. – Bilaman, sen aqlli qizsan, – dedi.

So'ng nigohlarini yerga qadadi.

– Bir paytlar bebosh hislarini deb yoshligini xazon qilgan bir ayolni taniyman. O'tkinchi tuyg'ular asiri bo'lish aqlni xiralashtirib qo'yadi, – dedi xo'rsinib.

Nigohlarini yerdan ko'tardi, unga qarab turib o'ylanib qoldim. Onam ko'z oldimda gavdalandi.

6

Erta tongda o'qishga yo'l olarkanman, ko'z oldimda onamning quvonchdan kulib turgan chehrasi jonlanardi. "Men yaxshi o'qishim, otanam orzularini ro'yobga chiqarishim kerak", takrorlab borardim.

To dars tugagunicha xayollarim o'zimda edi. So'ng kutubxonaga yo'l olarkanman, xayollarim yana kuz mezonlari kabi to'zg'ib ketayotganini sezib qoldim. "Yo'q!" O'zim bilan o'zim kurashardim. Yaxshisi, yotoqxonaga qayta qolaman, baribir, bu holatda hech narsa o'qiy olmasligim aniq, deya o'yladim.

Yotoqxonagacha yetti daqiqalik yo'l. Birdan nigohlarim uzoqladi... Yo'l chetida u meni kutib turardi.

U bilan suhbatlashib borarkanmiz, yuragim besaranjom, notekis urar, biroq unga jilmayib qarardim. U xitoy tilini tezroq o'rganishida yordam berishimni iltimos qildi va har kuni darsdan so'ng kutubxonada kutib o'tiradigan bo'ldi.

Yana u haqida o'ylay boshladim. Qo'lim ishga bormay qolgan. Narsalarim xonam bo'ylab tartibsiz sochilib yotar, darslar o'lda-jo'lda... Yana hammasi unut bo'ldi. Ayining so'zlari-yu o'z-o'zimga bergan va'dalarim...

7

Ertasi kuni Juma edimi, yodimda yo'q. Xitoy tili o'qituvchimiz uchinchi chorak natijalarini

tarqatdi – “ef”. Hayotim davomidagi eng yomon bahoyim edi bu. Bizda buni “ikki” deyishadi. Men tushkunlikka tushib qoldim, to‘lib o‘tirardim. Darsdan chiqiboq, to‘g‘ri yotoqxonaga yo‘l oldim. Ko‘nglimga hech narsa sig‘masdi. Xonamga kirib eshikni ichidan qulfladim, so‘ng devorga suyangancha, xatolarimni tahlil qila boshladim.

Xitoyda o‘qish uchun grant yutib olganimda qanchalar suyungan edim-a? Imtihon natijasi qo‘limda, tinmay osmonga irg‘ishlardim. Kechalari uxlamay o‘qiganlarim, qiyinchiliklarim mukofoti, dedim. Ammo bir muammo bor edi. Bilet puli, Xitoyda qiynalmay yashay boshlashim uchun anchagina mablag‘ kerak edi. Oddiy o‘qituvchi oilasida shuncha pul bo‘lishi mumkinmi? Bu haqida bilganlarida, dadam onam bilan maslahatlashib, yoshi meniki bilan teng mashinamiz bo‘lardi – bobomdan esdalik – shuni sotadigan bo‘lishdi. Avvaliga “yoshlar – bizning kelajagimiz”, deya bong uradigan qator tashkilotlar eshigini qoqdim. Biri ochdi, biri ochmadi. Eshigini ochgani ham “xo‘p, yordam qilamiz” degan quruqqina va‘dalar berishdi. Dadamga: “Biroz kutaylik-chi, chiqmagan jondan umid”, dedim. Dadam ham, hech bir natija bo‘lmasligini bilib turardi.

– Mashina juda eski, boshqa yangi chiqqanidan olarman... – dedi qat‘iy.

So‘ng bari tezlashib ketdi.

– O‘zingni ehtiyot qil, issiq kiyinib yur, yaxshi ovqatlan, – dedi onam xayrlashayotib. Onam yuzlarimdan qayta-qayta o‘parkan, bag‘riga bosdi, hech ayrilgisi kelmasdi.

– Bo‘pti, qizim, xayr, Xudoga omonat topshirdim, – dedi dadam ma‘yus tortib.

Boshqa bir so‘z demadi. Dadamning quvonchi-yu tashvishi ichida, bilaman. Dadam indamaydi, lekin men bilan faxrlanadi. Qizim Xitoyda o‘qiydi, deb og‘aynilariga maqtanadi. Onamdan eshitganman.

“Men bularni qanday unutishim mumkin? Men dadamning umidlarini, onamning orzularini xazon qilishim mumkinmi? Yo‘q. Aqlimni yig‘ib olmasam bo‘lmaydi”. Bir chetda chang bosib yotgan yondaftarchamga ko‘zim tushdi. So‘ng yuz-ko‘zimni bolishga bosdim, ko‘zlarim yumildi.

8

Quyosh derazamdan mo‘ralabgina yuzlarimni siladi. Xuddi onam quyoshga aylanib yonimga kelgandek edi. Omonat kuz quyoshining kuchsiz bo‘lsa-da, tanga orom beradigan nurlari xonamga yangi tong otganidan daraklagani kelgandi.

Eshikning “gurs-gurs” etib ikki bor musht yegani meni sergaklantirdi. Juda vahimali, jahl kuchi edi. Shoshildim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, Mansurxon turardi. Ko‘zlarida g‘azab. Lablari titrarkan, yuz tomirlari bo‘rtib chiqqan, sochlari tik edi.

– Kecha nega kelmading? Qancha kutdim, bilasanmi? Aytib qo'ysang, nima bo'lardi? – dedi ko'zlari olayib.

Avvaliga qo'rqib ketdim. Ko'zlarimni katta-katta ochib, unga termulib turardim. Kecha bari yodimdan ko'tarilgandi. Telefonim quvvati tugagan, u meni kutishi haqida o'ylamagandim. Meni keladi, deb darsdan so'ng kutubxonada kechgacha kutib o'tirgan, yotoqxonaga qaytgach... qizlar qavatiga ko'tarilish mumkin emas, tuni bilan alami ichida qolgan.

Duduqlana boshladim.

– Men... kecha...

– Bir og'iz aytib qo'ysang, o'larmiding, – o'shqirardi u. – Qancha vaqtim zoye ketdi.

So'z aytishga botinolmasdim...

– Seni qancha kutdim, bilasanmi?

– ...

U mag'rur, men xokisor edim. U kuttirishi mumkin, men esa faqat kutishim... Kutish menga malol kelmas, u esa kutishni o'ziga ep ko'rmasdi.

– Nima bo'ldi, gapir! Gapir deyapman senga!

Uning oldida mung'ayibgina turardim. Uning ovozini eshitgan qo'shni xonadagi qizlar bir-bir bosh chiqarib qo'yishardi.

– Nega buncha baqirasan? – qayerdandir Ayi paydo bo'ldi. – Nimaga buncha shovqin solasan? Nima bo'ldi, osmon uzilib yerga tushdimi? – qo'lida chala-yarim siqilgan pollattadan suv chak-chak tomchilardi.

– Sen nega aralashasan? Kimsan, o‘zi? Farroshmisan, ishingni qil! – dedi u xitoychada g‘alib talaffuzda kibr bilan.

Men bu tarzda javob kutmagandim. Men uni bu qadar tarbiyasiz, deb o‘ylamagandim. Onasi tengi bir ayolga nisbatan bu qadar qo‘pol muomala qilishga qanday haddi sig‘di ekan? Farrosh bo‘lsa ham ona-ku! Bolalari uchun farroshlik qiladi, axir. Men sevgan inson shumi? Ming bir xayollar yopirilib kela boshladi. Ko‘z oldim qorong‘ulashib ketdi. Ayi qo‘limdan tutdi.

– Sen ayollar bilan qanday muomala qilishni bilmas ekansan? Hayf senga, – dedi u titrab. Bu qadar qo‘pol muomala unga ham qattiq ta‘sir qilgandi.

Ayi qo‘limdan ushlab ichkariga tortqiladi. So‘ng eshikni yopmoqchi bo‘ldi.

Mansurxon eshik ostiga oyog‘ini tirab qoldi.

– Hoy, chiq bu yoqqa! Javob ber, dedim! – dedi depsinib. Hali ham jahl otidan tushmagandi.

Men unga qaradim. Men yoqtirib qolgan inson shumi?

– Seni ko‘rishni xohlamayman. Ket bu yerdan, – dedim g‘azabim qaynab.

Ovozim u qadar baland chiqmadi, pichirladimmi, bilmadim. Lekin u eshitdi, u dovdirab qoldi. U bunday muomalani kutmagandi. Uni soatlab kutadigan, uni telbalarcha sevib qolgan qizdan bunday muomalani kutmagani aniq.

Eshikni "qars" etib yopdim. Bu eshik sevgi deb atalgan o'sha aldamchi tuyg'ular uchun yopildi. Qanchadir vaqt men uchun qadrli shu tuyg'ular bilan yashadim, o'zimcha sevdim, o'zimcha sevindim. Aslida, bu sevgi emasdi. Sevgi bir paytda ikki qalbning asirga aylanishi, ikki yurakning birga urishidir.

U xato qildi. Kechirilmas xato edi bu. Men hammasini, menga aytganlarini-da kechirishim mumkin edi, biroq Ayiga qilgan muomalasini kechirolmasdim. Begona bir yurtda menga oyi bo'lgan, menga ona mehrini bergan, meni o'z qizidek yaxshi ko'rgan ayolga nisbatan qilgan hurmatsizligini kechirolmasdim.

9

Vaqt yugurik, Ayi aytganidek, bir yil o'tdi-ketdi. O'qish tugab o'z vatanimga qaytish fursati yetdi. Qalbm o'zgacha tuyg'ular og'ushida, xursand edim. Onam bag'riga oshiqayotgandim.

Yotoqxonadagi tanish-bilishlar bilan xayrlashdim. Ular orasida Mansurxon ham bor edi. Ko'rmaganga oldim, u ham meni bilmaganga soldi o'zini. Uning yonidan o'tayotganimda, oldingi his-tuyg'ularim endi qo'l-oyog'i nimjon bir narsaga aylanib qolganini, biroq uni hanuz unutilmaganimni tushundim. Lekin endi men ham mag'rur edim.

Eshitishimcha, u xitoylik bir qiz bilan tanishib olgan, qo'l ushlab har kuni aylanishar,

seni olib ketaman, deb yurgan emish. Xitoylik qiz ham uni sevib qolgan, uning uchun har narsaga tayyor emish. O'rtoqlari hayron bo'lib so'rashibdi, shu qizga uylanasanmi, deb. "Ey, qayoqda? Kelinni onam topadi, onamga yoqqaniga uylanaman. Xitoy tilini yaxshi o'rganib olay, u yog'i bir gap bo'lar", – debdi. "Subutsiz, yolg'onchi", dedim bu gapni eshitganimda, ich-ichimdan g'azabim qaynab...

Erta tongda qolgan-qutgan narsalarimni yig'ishtirish bilan ovora edim. Eshik taqilladi. Ayi meni yo'qlashini bilardim. U bilan eng oxiri xayrlashishni o'ylab qo'ygandim. U ketayotganimni eshitib yig'lab yubordi.

– Ayi, yig'lamang, – dedim ko'nglim buzilib. – Men yana kelaman.

U meni qattiq bag'riga bosdi, quchog'i issiq edi. So'ng ko'zyoshlarini kafti bilan artarkan:

– Qizaloq, yana kelgin, seni kutaman, – dedi.

ILINJ

1

Vokzal perroni odatdagiday gavjum, poyezdning shoshib pishqirishi, odamlarning hay-haylashi shovqin orasidan ajrab quloqqa chalinib qoladi. Naima bekatdagi ustun qoshiga qoqilgan dumaloq soatga qarab-qarab qo'yarkan, kimnidir intiq kutardi. Soat millari bir maromda chiqillar, yuragining bir chetida miltillab turgan umid uchqunlari bitta-bitta so'nayotgandek tuyulardi.

* * *

Bundan roppa-rosa yetti yil avval ham shoshib yugurayotgan soat millariga qararkan, ko'zi yo'lda odamlar orasidan kimnidir izlardi. O'shanda qosh-ko'zlari hozirgidan ko'ra yorqinroq, qo'llari mayinroq, yuziga birorta ajin o'rlamagan yosh, durkun payti edi. Nihoyat Mavlon ko'ringach, ko'zlari quvonchdan porlagan. Unga xursand qo'l silkitarkan, yuragi hayajondan entikib qo'ygandi.

- Balki, ketmassan? Yaxshilab o'ylab ko'r! - degandi Mavlon yetib kelgach, Naimaga umid bilan boqib.

- Yo'q, bormasam bo'lmaydi, otam bari-bir qo'ymaydi. Hozir ketmasam, o'zi kelib olib ketadi.

Mavlon mehribonlik uyida katta bo'lgan, ilmga chanqoq, mehribon yigit edi. Qoshlari baroq, bo'ylari baland, kelishimli. Mavlon esa Naimani boshqa qizlarga o'xshamagan xislatlari, soddaligi uchun sevardi. To'rt yil birga o'qishdi. O'qishni bitirgunicha bir-biriga sevgi izhor qilmagan bu ikki yosh hanuz do'st maqomida edilar, biroq ikkisi ham muhabbatning shirin sog'inchlaridan behavra emasdi. Bir-birlarini yarim kun ko'rmasa, xuddi bir yil uchrashmagandek tuyular, pinhona sog'inishardi. Biroq nigohlar aldamaydi, nigohlar har gal sotib qo'yadi, bari mehr bilan boqishlarda, ma'noli qarashlarda aks etardi.

– Ketmasang agar, men ishlayotgan firmaga ishga kirarding, boshlig'imiz yaxshi odam ekan, sen uchun o'zim gaplashib ko'raman.

– Bu xomxayoldan boshqa narsa emas, Mavlon. O'zingiz ham bilib turibsiz. Meni ishga olish ehtimoli juda kam. Qabul qilishmasa, ish izlab sarson yuramanmi? Qiz bola boshim bilan qayerda yashayman?

– Birorta kvartira topamiz.

– Yana xayollarga berilyapsiz. Hali o'zingizga topganingiz yo'q-ku!

– Axir, nima qil deysan, seni qo'yib yuborgim kelmayapti-da. Hali yotoqxonada yana bir-ikki hafta turishing mumkin-ku. Nega buncha shoshilmasang.

– Kecha onam bilan gaplashgandim, – dedi Naima g'amgin. – Diplomingni olgan bo'lsang,

tezroq qayta qol, yo'qsa, otang ertagayoq borib, o'zim olib kelaman, deb o'tiribdi. Otangni ovora qilma, dedilar.

– Axir, hali olmadim, desang bo'lardi-ku!

– Yolg'on aytaymi? O'z ota-onamni qanday qilib aldayman?

Mavlon xo'rsindi. Ishlayotgan bo'lsa-da, hali rasman tasdiqlaganlari yo'q, sinov muddati berilgandi. Yotoqxonadan chiqib ketmagan, shu hafta yakunida, kvartira bozoriga chiqib, biror joy topish ilinjida edi. Hozir shularni o'ylarkan, Naimani sira qo'yib yuborgisi kelmas, hozir ket-sa butunlayga ayrilib qoladigandek xavotirda edi.

– Ishga rasman tasdiqlanib, biror kvartiraga ko'chib o'tgach, sovchilarni yubormoqchi edim, – dedi Mavlon yerga qarab.

Bu gapdan Naimaning yuzlari qip-qizarib ketdi. Nigohini yerga qadab, nima deyishni bilmas, yugurib uzoq-uzoqlarga qochib ketgisi keldi. Oraga tushgan jimlikdan har ikkisi birdek noqulaylik seza boshladi. Shu damda poyezdning yurishga shaylanayotganini bildiruvchi signal chalindi.

– Mayli, men bora qolay, – dedi Naima ketishga taraddudlanarkan.

– Ketma deganim bilan qolmaysan, bilaman, biroq uyga yetib borgach, meni kutishga va'da ber. Hech bo'lmasa, shu narsa menga kuch beradi. Albatta, tezda sovchilarimni yuboraman.

Mavlon bu gaplarni aytib olgunicha hayajonlandi. Ovozi titrab chiqdi. Naima buni sezdi, ammo negadir hech nima demadi. Qizbola otasining ori bo'ladi. Yelkasida otasining nomusini orqalab yuradi. Balki, shuning yuki bosgandir, shu uchun va'da bermagandir. Biroq ich-ichida "sizni kutaman" degan ovoz jaranglardi.

Poyezdga ko'tarilarkan, Mavlonga qarab-qarab qo'yardi. Mavlon esa unga so'nggi daqiqalarda qarorini o'zgartirar degan umid bilan bo'qardi. Ayni damda ikkisi uchun ham bu dunyoda go'yo ulardan o'zga hech kimsa yo'qdek.

Naima o'rniga o'tirgunicha derazadan Mavlon nigohlari bilan kuzatib turdi. So'ng u o'tirgan derazaga yaqinroq bordi, biroq shu daqiqada poyezd ilkis silkinib bir-ikki pishqirdi-yu, taqir-taqir qilib yura boshladi.

Mavlon poyezddan ortda qolmaslik uchun ildamlarkan: "Naima, Naima, men... men seni juda-juda yaxshi ko'raman", – dedi. Biroq buni na qiz, na biror kimsa eshitmadi. Bir hisobda, bu so'zni aytishga-da hojat yo'q edi. Ikkisi ham bilardi. Ikkisiga ham ma'lum edi. Shu paytgacha do'stlik rishtalari ularni yaqinlashtirdi, odamlarning gap-so'zlaridan pana qildi. Biroq qalblar so'zsiz tillashdi, nigohlar barini oshkor qilib qo'yarkan, qarashlarda hammasi aks etdi.

Naima ketgach, Mavlonning qalbi kuzgi bog'lar kabi huvilladi-qoldi. Barglarini yo'qotgan daraxtdek ma'yuslandi. Quyoshi botib ko'ngli tun

kabi qorong'ulikka cho'mdi. Ammo ertangi kun umidi qayta jonlantirdi. Vokzaldan chiqib avtobusga o'tirarkan, kelajak rejalari haqida o'ylardi. Tez orada ishim hal bo'ladi, keyin esa kvartira topaman, so'ng sovchilarni yuboraman...

2

Biroq hayot har doim ham xohlaganimizdek bo'lmaydi. Hayot xayollarimizdagidan boshqacha. Ular orzulaganidek bo'lmadi. Naima qishloqqa qaytib mahallasidagi Jobir degan bir yigitga unashilganini eshitdi-yu, hushini yo'qotgudek bo'ldi. Yigit shaharda o'qirdi, uy, mashina... Ota-onasining quvonchini ko'rib, Naima og'iz ochib bir so'z deyolmadi. Yigit ta'tilga kelganida to'y ham o'tdi, ta'til tugab er-u xotin bo'lishib shaharga birga qaytishdi. Yangi hayot boshlandi, tez orada turmush tashvishlari bilan bo'lib, Naima barini asta-asta unuta boshladi.

Farzand xonadonlariga fayz, quvonch olib kirdi. Er-u xotin bir muddat baxtdan sarmast bo'lishdi, yil quvib yil o'tdi. Mansab pillapoyasidan yuqorilagan Jobir tezda o'zgardi. Mehribon ota o'rnini serzarda, jahldor er egalladi. Sababini Naima kechroq bildi. Juda kech bildi. Erining o'y-xayollarini egallab olgan kotiba qizning oldiga borishga qaror qildi. Tiz cho'kib yalinaman, turmushimni buzma, sendan o'tinib so'rayman, deyman, deb o'yladi. Bordi. Biroq kotiba qiz uning gaplarini eshitib, xoxolab kuldi.

– Men emas, aslida, ering meni yo‘ldan uryapti, – dedi. – Ayt, ering meni tinch qo‘ysin, – dedi.

Bu so‘zlar Naimaning ko‘ksiga xanjardek sanchildi. Naima bu gaplardan so‘ng hushi o‘zida yo‘q, to‘g‘ri Jobirning oldiga kirib bordi. Jobir ish bilan band edi, qayrilib qaramadi. Kutdi, kutdi, ko‘ng o‘sal bo‘lib qaytib chiqib ketdi. O‘sha kun o‘rniga kech yotdi. Uxladimi, yo‘qmi, xiyol muddat o‘tib yana ko‘zini ochdi.

Naima ko‘zini ochishi bilan ro‘parasidagi, tashqari ko‘rinib turguvchi derazaga boqdi. Tong oqarib qolgan, muzlatkichning g‘o‘rillashidan boshqa tovush qulog‘iga chalinmasdi, yana quloq tutdi. Bu gal soatning chiqillashi qo‘shildi. Yonida o‘g‘li beozorgina bo‘lib, uxlab yotardi. O‘rnidan turib bolalar xonasidan chiqdi, yotoqxonaga bosh suqdi. Bo‘m-bo‘sh, yuragi orziqdi. Bo‘g‘ziga nimadir tiqilib, xo‘rsinib qo‘ydi. Eshik bo‘sasg‘asida qaqqayib turarkan, bir ko‘ngli o‘rniga yotib, bolishni quchoqlagancha yig‘lagisi keldi. Entikdi. Orqa o‘girib xonadan chiqdi. Oshxonaga o‘tib stolga engashdi. So‘ng balkonga chiqdi. Kuzning salqin havosi ko‘ylagining kalta yengi ostidan kirib etini junjiktirdi. Uzoq-uzoqlarga termuldi. Katta yo‘lda mashinalar fonari yoniq, o‘tib qaytishardi. Odamlar g‘imirlab qolishgan, yangi kun kimlar uchundir boshlanib bo‘lgandi. Shu payt eshik taqilladi.

– Kelyapsizmi? Buncha qolib ketdingiz? – dedi Naima xavotir aralash.

– Senga nima, uxlayvermaysanmi? – sovuq, qo‘rs ovoz jaranglab ketdi.

Naimaning eti jimirladi. Alam bilan og‘iz juftladi-yu, biroq sekingina dedi:

– Xavotir oldim.

Jobir o‘rniga yotarkan, xotiniga qayrilib qaramadi. Ortidan kirdi. Stul ustida kiyimlar ustma-ust, palapartish yechib tashlangandi. Xotinining sharpasini sezib Jobir ko‘rpani boshiga cha tortib oldi. Naimaga alam qildi. Uyni boshiga ko‘tarib janjal qilgisi keldi. Shirin uyquda yotgan bolasini o‘yladi. O‘rniga yotdi. Ko‘zlarini yumdi, tezda sovuq qotdi-yu, ko‘rpaning bir uchini tortdi. Jobir norozi ohangda inqilladi. Naima baxtli bo‘lgan onlarini esga olarkan, beor yillarni ortda qoldirib bir necha yil ortga qaytgisi keldi.

* * *

– Oyi, ketdikmi? – dedi bolakay yengidan tortib. – Dadam qachon keladi? Dadamga ketayapmizmi?

Naimaning yuragi ezilib ketdi. Jimgina odimlarkan, zinadan poyezdga ko‘tarilar chog‘ida ham, yo‘lga qarab-qarab qo‘yardi. Uni kimdir kuzatib qo‘yishini istardi. Ortidan yugurmasa ham mayli, “Naima, men seni sevaman” demasa ham mayli. Qo‘lini yuqori ko‘tarib silkitib qo‘ysa, bas.

NOMA'LUM AYOL

Men unga ko'p bora duch kelganman. Universitetga borish uchun metro bekatining aynan u chiqadigan yo'lagidan yurishga to'g'ri kelardi. Ko'pincha yonidan shoshilibgina o'tib ketardim. Lekin har gal oqsoqlanganча aravacha sudrab borayotgan bu ayol e'tiborimni tortar, ba'zan unga orqa tarafdан, ba'zan oldi tomondan bir ko'z tashlab qo'yardim, xolos.

Boshqa safar uni metroning chiqaverish joyidan o'n qadamcha narida ko'rdim. Taxta stol, ustiga mayda-chuyda yoyib qo'yilgan, ayol esa stulchada stoliga suyangancha o'tirardi. Oldiga tutilgan fartugi eskirib ketgan, rangi o'chib, kirlanib jigarrang tus olgandi. Oyog'ida qalin oqish jun paypoq, qalin "angorka" ko'ylagining ustidan guli rangi bilan qorishiq, tugmali jun jemfer kiygandi. Sochlari siyrak, qorasidan ko'ra oqi ko'proq, boshining tepasiga o'rama qilib yig'ilgan, yuzi ajin bosgan bir qari ayol edi, ehtimol.

U o'tgan-ketganga parvo qilmas, mizg'ib olmoqchidek, musicha kabi ko'zlarini ochib-yumib o'tirardi, xolos. Bir gal shu bechora ayoldan nimadir sotib olsammikan, deb o'ylaganim rost. Taroq, sovun, soch to'g'nog'ich, hasharotlar uchun dori... va yana allambalolar. Biroq narsa-

larining chang bosib yotishi yoqmasdi. Odaming ko'ngli tortmaydi.

* * *

O'zga bir tilni o'zlashtirish oson ish emas. Koreyaga kelganimdan beri, urinaman, televizordagi turli dasturlarni ko'rishga harakat qilaman. Bir gal to'qqizta bolani tug'ib katta qilgach, barchasini mustaqil hayotga qo'yib yuborgan ona haqida ko'rsatuv bo'ldi.

Ona hali tetik, ikki-uch oyda bir keladigan farzandlari haqida mamnun so'zlaydi. Biroq qirqqa kirib ham turmush qurmagan qizi yilda bir kelarkan. Ko'rsatuv bahona yig'ilishibdi. Ona quvonchdan yal-yal yonadi. Qo'li qo'lga tegmay ovqatga unmaydi. Ellikka kirgan o'g'ilning na xotini, na bolalari yordamlashay demaydi... Bu yoqda uka-singillar ovqatning pishishini sabrsizlik bilan kutadi. Onaning yelkalari chiqib, xiyol enkayib qolgan. "Bolalarni tun-u kun yelkamda ko'tarib yurardim, u paytlar qiyin edi. Zamon ishlamaganimizga qo'ymasdi, bolalarning qorni to'q, usti but bo'lishi uchun kecha-yu kunduz ishlashimiz kerak edi", – deydi ayol jilmayib.

O'g'ildan sado chiqmaydi. Qiz indamaydi. Ular ko'rsatuv sharti bo'yicha onasi pishirgan taomdan yeb bolaligini eslashi kerak ekan. Aslida, ham shu uchun kelishgan. Ona uch-to'rt xil taom tayyorlaydi, bolalarining ikkitasi ish sabab kelolmabdi. "Qoyil-ey..." deyman alamimdan.

Farzandlarining nimani yaxshi ko'rish haqida to'liqinlanib gapirarkan, ona bechoraning nimani yaxshi ko'rish haqida hech kim og'iz ochmagani jahlimni chiqaradi.

- Shuncha bola tug'ib katta qilsang-u... - deyman o'zimni zo'rg'a bosishga urinib.

- Nega asabiylashasan? Shunaqalar ham bor, - deydi dugonam xotirjam.

- O'zing o'ylab ko'r, axir, ona oldidagi... - hamon achchig'imdan tusholmayman.

- Aytyapti-ku, pul yuborib turamiz deb, - deydi dugonam televizorga ishora qilib.

- Pul, o'lsin, - deyman, so'ng boshimni egaman.

Yuragim uvishadi. Onamni sog'inib ketaman. Kunora telefon qiladi.

- Nilu, qizim, yaxshi yuribsanmi? Qachon kelasan?

Bu savol onamnimas, ko'proq meni qiynaydi. O'qish iyunning yigirma beshinchisida tugaydi, biletni yigirma yettisiga olganman.

Onam emas, men kun sanayman. Shunchalar yaxshi ko'ramanmi? Meni onam tomon tortib turgan nima u? Tushunmayman.

* * *

Onamning o'gay ekanini bilganimda qay ahvolga tushganimni aytib berishim qiyin. O'shanda o'n yashar qizcha edim, ukam endigina maktabga bora boshlagan paytlar.. U sho'x edi, u bir

yerda turmasdi. Goho piyolani sindirib qo'yar, gohida divanning ustiga chiqib sakrardi. Oyog'i singan stul uchun ham, singan kosa uchun ham men kaltak yerdim. Bir kuni chidolmadim.

– Nega meni urishasiz, ukamga indamay-siz-ku? Men o'gaymanmi? – dedim.

Bu so'z tilimga qayerdan yopishganini bilmayman.

– Ha, – dedi onam. – Sen o'gaysan, – dedi menga yovqarash qilib. – Bilasanmi, nega seni uraman, alamimni olaman, mana bular uchun, – dedi u yengini shimarib bilagidagi ko'kish izlarni ko'rsatarkan. – Har bittasi uchun javob berasan hali.

Onam qo'l-oyoqlarida har-har zamon paydo bo'lib qoladigan bu izlarga avval e'tibor berib qaramagan ekanman.

Men qotib qolgandim. So'ng yig'lagim keldi. Uydan qochib chiqdim. Uyimiz orqasidagi qarovsiz dalalarni birma-bir ortda qoldirib chopdim. Men bu dunyoda yolg'iz qolgandek edim. Hech kimi yo'q yetim edim, go'yo. Bilmadim, qancha chopdim, qancha yugurdim. Nihoyat, katta bir ariq bo'yida to'xtadim. Shataloq otib oqayotgan beg'ubor suvga qarab qancha o'tirdim, bilmayman. Tizzalarimni quchib uzoq o'yladim. Yig'ladim, ko'zyoshlarim suvga qo'shilib oqdi. Yuzimni chayib o'rnimdan turganimda quyosh shafaqqa bosh qo'yayotgan, osmon qizg'ish tus olgan bir payt edi.

Men ortimga qaradim. Qaytishga qaror qilgandim. Meni urushsa ham, urisa ham mayli. Onasiz qolmasam bo'lgani. Balki, o'gay onam badanidagi ko'kish izlar yana ko'payishini istamagandirman.

Darvoza oldida onam ilhaq turardi. Paypoqchan, yalangoyoq... Boshidagi ro'moli silliqib sal nariga tushib qolgan, tushganini-da sezmagani... U meni ko'rib qotib qoldi, biroq hech nima demadi. Ko'zlarida yosh ko'rganday edim.

Shundan keyin meni boshqa urishmay qo'ydi. Ukam yomon ish qilsa, chidardi, tishlarini tishlariga bosganida g'ijirlab ketar, yomon qarar, biroq meni urmasdi.

Qaysidir kun yodimga tushib, onam bilagidan ko'kish izlarni qidirdim, topolmadim.

* * *

Ko'rsatuv tugay, deydi. Bolalar qorni to'yib, ko'chaga chiqishadi. Lash-lushlarini mashinalariga ortishadi. Ona ikkita tuguncha ko'tarib chiqadi, kelolmagan bolalariga ovqat berib yuboradi. Ona bolalari bilan qo'l siltab xayrlasharkan, ajin bosgan, bug'doyrang qadoq qo'llari bilan mijjalarini siypalaydi. Kameraga qarab turib "sog'inaman-da" deydi mung'ayibgina.

Ko'rsatuv xodimlari uchrashuvga kelmagan o'g'illarni izlab yo'lga tushishadi. Topib boradi, katta-katta, keng-u mo'l uylar..

– Nahot bir burchagiga onang sig‘maydi? – deyman yana jahlim chiqib.

Bu gal dugonam ham indamaydi.

O‘g‘il onasining ovqat berib yuborganidan suyunib qo‘yadi. Bir qoshiq ichadi, so‘ng onasini maqtaydi. “Onamning ovqatlarini ko‘p sog‘inaman. Onam shirin ovqat qilardi...”

So‘ng telefon orqali onasi bilan suhbat quradi. Rahmat aytadi.

– O‘l-a, bu kuningdan... – deyman o‘zimni tutolmay.

Ko‘rsatuvni oxirigacha ko‘rolmayman. Bardoshim yetmaydi. So‘ng dugonamdan so‘rab olaman. Istamaygina aytadi u ham:

– Shu... o‘zing ko‘rding-ku... Onasi: “Men hayotga kelib ko‘rgan quvonchim shular. Farzandlarim baxtidan quvonaman, ularning katta ishlarda ishlayotganini eshitib suyunaman”, – dedi.

Erta tongda yana o‘qishga shoshilaman, metro ichida yugurib yuraman. Biroq bugun negadir u ayolni ko‘rmadim. Metrodan chiqaverishda, chapdan o‘n qadamcha narida stoli va ustiga to‘nkarib qo‘yilgan stuli turar, belidan arqon bilan tang‘ib qo‘yilgandi. Hayron bo‘ldim-u, parvo qilmay o‘tib ketdim. Keyin imtihonlar bilan bo‘lib, esimdan chiqibdi.

Biror ikki haftacha ko‘rmadim, shekilli. Yana bilmadim.

Bir kuni metrodan hovliqib chiqdim. Metroning shundoq chiqaverishida, suyanibgina bir

ayol o'tirardi, ikki bukilib olgan... Egnida eski, kir palto, boshiga qora shapka, qalin shim kiyib olgan, oyog'ida etik. Sal narida mayda-chuyda solingan aravachasi do'ppayib turar, o'zi esa musichadek ko'zlarini bir ochib, bir yumib behol o'tirardi. Oldiga qo'yib olgan kichkinagina idishcha ichida bitta yuz von (koreys pul birligi)lik tanga turardi.

Men unga bir qaradim, xolos. Doimgidek shoshilayotgandim. O'n qadamcha yurdim. Ayol mayda-chuyda qo'yib savdo qiladigan stol qiyshayib qolgan, stul esa yer bilan bitta sinib yotardi. Nima bo'lganini tushunmadim. Taxmin qildim, xolos. Biror mast kishining ishi bu.

Oradan bir necha kunlar o'tdi. Endi shu manzara har kungidek bir xil davom etardi. Ayol metrodan chiqaverishda suyanibgina o'tirar, oldidagi idishda bir dona tanga yotar, sal narida mayda-chuyda solingan aravacha mung'ayib turardi. Endi quyosh qizdiradigan kunlar yaqin, biroq ayolning egnidagi kir palto hanuz yechilmagan.

O'qituvchimiz bir gal onasini xor qilib tashlab ketadigan farzandlar haqida gapirib qoldi.

– Qariyalar uyiga joylash uchun katta pul to'lash kerak, shuning uchun onasini o'rmon ichkarisida qoldirib, siz shu yerda o'tira turing, men hozir kelaman, deb ketib yuboradiganlar ham bor, – dedi u g'amgin bosh egib. – Bir gal aylangani boramiz, deb onasini kiyintirib, aero-

port ichida qoldirgan o'g'il kameralar sabab fosh bo'lib qolgandi.

Qaytish fursati yaqin. Oxirgi marta universitetga yo'l olgan kunim... Doimgidek metro oldida o'sha ayolni uchrataman, deb o'ylagandim. Bir-ikki so'm orttirganim bor edi... Biroq uni topolmadim... Bir chekkada aravachasi-yu tanga solingan idishi turar, o'zi esa yo'q edi.

ORZU VA DENGIZ

1

Tastubeklik Amangeldi otani bilmaydigan kishi yo'q. Yoshi yetmishdan oshgan bu qariyani butun ovul taniydi. O'zi qotmadan kelgan, chuvakkina chol, lekin tinim bilmaydi. Cho'qqaygan soqoli, yakkam-dukkan mo'ylovi bor, butun yuzini tirish qoplagan bu chol saxiyligi bilan ham nom qozongan. Orolga kelgan borki, uning mehmoni. Shungamikan, otani butun Orol bo'yi, hatto Toshkan taniydi.

Amangeldi otaning bobosi ham, bobosining bobosi ham baliqchi o'tgan. Baliqchilar avlodidan, baliqchilar qishlog'ida yashardi. Qishloq Orolning shimoliy sohilida joylashgan, gavjum, sershovqin bir maskan edi. U paytlar ota yosh edi, kuchga to'la edi. Otasidan qolgan kasb – baliqchilik bilan shug'ullanar, shu kasbga mehr qo'ygandi. Tong otmay dengizga chiqib ketarkan, kun botganda qaytar, bir kunda yuz kilolab baliq tutgan paytlarini eslarkan, ko'ziga yosh qalqadi. Orol ovuldan keta boshlaganida hech narsani tushunmay qoldi. Barisi shunchalar tez ro'y berdiki, bir kechada Orol bir necha chaqirim ortga chekindi. Ulkan kemalar sayozlikda tiqilib qolib ketdi. Suv sho'rланib baliqlar

o'ldi. Oxirgi bor dengizga tashlangan to'riga o'lik baliqlar chiqdi.

Orol dengizining o'sha to'lib-toshgan paytlarini har qo'msaganida, ko'ziga yosh keladi, yosh boladek ho'ngrab yig'laydi. Ovuldagilar keyinroq bir necha chaqirim yo'l bosib Orol atrofidagi kichik ko'llarga borib baliqchilik qilib yurishdi. Biroq u ko'llarning ham ko'pi qurib qoldi, iqlim o'zgarib to'qayzorlar yo'qolib ketdi, hayvonot olami qirilib bitdi. Mana necha yilki, ota qo'lga to'r olmadi, qo'llari to'rni shunchalar sog'ingan-ki... Yoshi yetmishdan oshgani bilan Orol dengizi bo'yida o'tgan bolaligini yaxshi xotirlaydi. Orol bo'yida cho'milib qumli sohilda yotib, oftobda toblangani haqidagi hikoyani qayta-qayta ayta-veradi. Bu hikoyani butun ovul biladi. Bugun dengiz o'rni jonsiz sahro, toshloq bir joy, endi bu yerlarda har qanday ulov ham yurolmaydi. Har kungidek qariya bugun ham Orolni ko'rgani yo'lga otlanayotganini sezgan xotini javranishni boshladi.

- Yana Orolni ko'rgani ketyapsizmi? Bormasangiz, nima bo'ladi-ya?

Ayjan xola har kuni shu savolni beradi. Javobini biladi, harchand qarshilik qilmasin, chol baribir yo'lidan qolmaydi. Nima qilsin, qarib shu choliga suyanib qoldi, uzoq yo'l bo'lsa, qo'yib yuborgisi kelmaydi, ayaydi-da.

- Ishing bo'lmasin! Tez borib kelaman.

Amangeldi ota uch g'ildirakli mototsiklini o'taldirarkan, eng avval idishida suv bormi-yo'qmi, tekshirib oladi. So'ng o'rindiqli osha o'tirarkan, Orol tomon oshiqadi. Har kuni shu ahvol, bir necha chaqirim yo'l bosib Orolni ko'rib qaytmasa, bo'lmaydi, ko'ngli joyiga tushmaydi.

Mototsikl ustida silkinib borarkan, ko'zlari yanayam qisilib ketadi, shamol turib qum to'zoni ko'zlariga kirib achishtiradi. Biroq ota yon bermaydi, yana yo'lida davom etadi. Og'iz-burun aralash o'rab olgan chit durrasining bir chetiga ko'zlarini ishqalab olib yana yo'lga qaraydi. Shamol yugurib, tuz chang ko'tariladi. Shunda ham parvo qilmaydi. Ko'zlari o'rganib ketgan, chang-to'zon kiraverganidan ko'zlarining kosasi kichrayib qush ko'zi bo'lib qolgan. Dengiz o'rnidagi sahroqum uzoq-uzoqlarga cho'zilgan. U yer-bu yerda qurigan saksovullar ko'zga tashlanadi. Tuz barxanlari uzoqdan qor yog'gandek ko'rinadi. Avvallari minglab o'simlik va baliqlarga bag'ri to'la dengiz bo'lgan bu joylar endi qaysi bir sayyora yuzasidek g'adir-budir tosh yo'l, xolos.

Juda uzoqdan mo'ltirab Orol ko'rinadi. Yaqinlashganing sayin kattarib boradi. "Qani endi, qani endi... o'sha to'lib-toshgan paytingga qaytsayding", cholning xayolidan doimgidek o'y o'tadi. "Qani endi mo'jiza ro'y bersa-yu, Orol suvga to'lib, bu sahrolar ustiga dengiz yopirilib kelsa, sahroqumda tiqilib qolgan kemalar yana to'lqin ustida chayqalsa..." Ota har gal dengizga-

cha bo'lgan yo'lda shularni o'ylaydi. Qalbida hali so'nmagani umid uchqunlari sabab, hamon Orol qaytishiga ishonadi.

Mototsiklni bir necha chaqirim narida to'xtatadi, Orol sohilidan uzoqroqqa qo'yadi, yo'qsa, botib qolishi mumkin. Oyog'ida kirza etik shaloplaydi, Orol tomon shoshiladi. Qo'lida suv idish, nihoyat Orol qirg'og'iga yetib keladi, qadr-doni oldiga kelgandek shodlanadi, aybdordek tiz cho'kadi.

– Keldim, Orolim, keldim. Bugun yana seni sog'inib keldim. Kelishimni intiq kutdingmi? – ming'irlaydi ota o'zi eshitadigan bir ovozda.

“Xush kelding!” degandek to'lqinlar qirg'oqqa shoshiladi, ko'pikli suv otaning tizzalarini bir quchib qo'ygandek, yana ortga qaytadi.

Ota bundan suyunadi. Meni kutib oldi, degan o'ygaga boradi. So'ng o'zi bilan olib kelgan suv idishning qopqog'ini ochadi. Qo'llarini mavjlanib turgan orol ustiga tutadi. Idishdan quyilayotgan suv barmoqlari orasidan tushib, Orol yuzasida doiralar chizgancha, zumda unga qo'shilib ketadi. Suv tomchilarida quyosh aks etadi. Unda hayot mujdalari ko'ringandek bo'ladi. Idishdagi suv tugagach, ota bo'sh idishni orqaroqqa, to'lqinlar yetolmaydigan yerga uloqtiradi. So'ng yana Orolga yuzlanadi.

– Senga suv olib keldim-da, Orolim. Senga suv olib keldim. Endi qaytmasang bo'lmaydi, sensiz ko'p qiynalib qoldik. Orolim, bizdan xafa bo'lga-

ning yetar, bizni jazolaganing yetar, bo'ldi endi, qayt, arazingni yig'ishtir. Sening dengiz bo'lga-ningni ko'rib keyin ketaman, ungacha o'lmay-man, Orolim. Seni ko'p xafa qildik, bilaman, Say-hun bilan Jayhunning yo'lini to'sdik, seni o'yla-madik, sen bizdan arazlading, xafa bo'lding, bi-laman. Qani endi, qo'limda bo'lsa ekan, har ikki daryoingni sengacha olib kelardim. Qani endi qo'limdan kelsa ekan, seni suvga to'ldirardim. Orolim, sen ham ularni tushungin-da. Ularga ham suv kerak, ular ham bolasini boqishi ke-rak, paxtasiga qaramasa, sholisini sug'ormasa, qanday turmush kechiradi, axir. Ular ham o'zi-ni o'ylaydi, mana, men seni o'ylayman, Orolim. Qayt, yana avvalgidek dengiz bo'l, Orol, – ota ko'zidagi yoshni tirish bosgan qadoq kaftlari bi-lan artarkan to'lib ketadi. – Bizni kechir, Orolim. Qaytmasang bo'lmaydi. Bolalarim, nabiralarim-ku, mayli, ulg'ayishdi, sening ertaklaringni ayt-dik, seni tasavvurlarida jonlantirdik, – Ota, en-tikib ketadi. Picha nafas rostlagach yana davom etadi, – endi ularning bolalariga nima deymiz, kelajak avlod bizlarni qarg'amaydimi? Bizning xatomizni deb ularni jazolama, Orolim.

Ota jim qoladi. Chuqur xo'rsinadi. So'ng o'rni-dan qo'zg'aladi. Ortga qaytarkan, tanasini yarim o'girib, yana Orolga tikilib qoladi. Bu qarashda endi sening navbating, seni kutaman, dengizim, degan nido bordek. Buni Orol tushunarmikan, ich-ichidan kelgan bu hayqiriqni Orol eshitar-

mikan. Orol ko'pik to'lqinlarini cholning ortidan yuboradi, qirg'oqqa yugurgan to'lqinlar yana shunday tezlik bilan ortga qaytadi. Amangeldi ota buni o'zicha tushunadi, menga "xayr" demoqda, "ortingdan boraman" demoqda, deb o'ylaydi.

– Nechuk erta qaytibsiz? – qo'lini beliga tiragancha ostonada Ayjan xola qarshilaydi.

– Doimgidek. Senga shunday tuyulgan, – ming'irlab qo'yadi chol. Qariyaning qushnikidek kichik ko'zlaridan yig'lagani bilinmaydi.

2

– Amangeldi ota, o'g'lingiz Orolga suv olib kelarmish, eshitdingizmi?

Erta sahardan ostonada qo'shni Mamat ko'rinish beradi. Sodda odamlar-da! Orolga kimdir kelayotganini eshitishsa, shunaqa o'ylashadi. Orolni qaytararkan, Orolga suv olib kelarkan, deb har kelgan odamdan umid qilishadi.

– Kim aytdi senga?

– Ovulda duv-duv gap. Hamma shu haqida gapiryapti. Sizning xabaringiz yo'qmi? Dunyoning narigi burchagidan olimlar kelayotganmish. O'g'lingiz olib kelayotganmish.

– Qachon? – hovliqib so'raydi Ayjan xola. – Bolam qachon kelarkan, Mamat? Intiq qilmasang-chi odamni, ayt.

– Ertaga. Ertagamish, xola. Rayonda hozirlik ko'rilyotganmish. Bugun rayondan kattalar keldi, deyishyapti.

Amangeldi ota qilayotgan ishini yana davom ettiradi. Hali rostmi-yolg'on bu xabardan suyunishni ham, suyunmaslikni ham bilmaydi. Mamatni gapiga ishonsinmi, yo'qmi? U aldamaydi. Uning rayon-da tanishlari bor, nima yangilik bo'lsa, hammadan oldin shu Mamat biladi. O'tgan gal Toshkandan jurnalistlar kelishidan oldin ham shu Mamat mujda keltirgandi. Undan oldin olimlar kelishini ham hammadan avvalroq shu Mamat bilgan.

- O'g'limni ko'rmaganimga ham sakkiz oy bo'libdi, - barmog'i bilan hisoblaydi Ayjan xola.

O'tgan gal o'g'li kelini va nevaralarini olib kelib bir hafta turib ketgandi. Amangeldi ota, o'shanda, nabiralarini Orol bo'yiga olib borgan, chug'ur-chug'ur qilishib nabiralari Orol bo'yida picha o'ynagan, "Ota, dengizni uyimizga olib ketaylik" deyishgandi. Shunda ota Orolning uyi oldida bo'lgani, har kuni qayiqda baliq tutgani borgan haqida uzundan-uzoq hikoyalar aytib bergandi. Hozir bari yodiga tushib ko'ngli buzildi.

- Shu bo'yi ko'rinish bergani yo'q, zang'ar, - jahli chiqqan bo'ldi o'zicha.

- Nima deysiz, chol, - ejikilab so'radi Ayjan xola.

- O'g'lingni aytaman-da, necha oyki ko'rinish bermaydi.

- Endi, uning ham ishi bor, nima deysiz. Ishidan ruxsat olishi osonmi? - Ayjan xola doimgidek o'g'lining yonini oldi.

...Ota indamadi, so'ng xo'rsinib qo'ydi. O'tmish yodiga tushib ma'yus tortdi, chog'i.

Allaberdi unda hali tug'ilmagan edi. Orol suvi haddan ziyod sho'rlanib ketgan paytlar, iqlim o'zgargan, shahardan kelgan olimlar bolalarni emizmaslikni aytib ketishgandi. Egizagi ikki oylikmidi yoki uch oylikmi, esida yo'q. Ayjan xola emizmasam, nima beraman, nima yeydi bular, ona sutining ziyoni yo'q, deb har xil gap-so'zlariga quloq osmadi, emizishni davom ettirdi. Egizagi ko'p yashamadi. Nima sabab bo'ldi, aniq emas, balki Orol qurigach iqlim o'zgarib, zaharli moddalar ta'sirida shunday bo'lgandir, balki emizmaganida yashab qolarmidi, ehtimol, organizmi nimjonlik qilgandir.

Ota ularni yerga qo'yganida, og'ir qayg'uda edi. Bir yoqda Orol ketib qolgan, bir yoqda bolalaridan ayrilgan Amangeldi ota bir necha vaqt o'ziga kelolmay yurdi. Qayg'u hadeganda arimadi, ancha vaqt bolali bo'lisholmadi.

Allaberdi otasining qalbida umid uyg'otdi. Yashashga, Orolning qaytishiga umid berdi. O'g'il ko'rganini suyunchilab ota eng birinchi Orol bo'yiga borgandi. O'zini Orolga otgan. Orol bag'ridan chiqqanida hamma yog'i oppoq tuz edi. Keyinroq, Allaberдини yetaklab Orol bo'yiga ko'p bordi. O'g'lining murg'ak qalbida Orolga mehr uyg'otdi. Tabiatni sevishni, e'zozlashni va unga e'tiborli bo'lishni o'rgatdi. Hali o'n yoshga kirmagan bola tabiatga ehtiyotsizlik oqiba-

ti nimalarga olib kelishini bildi. Tabiat bergan ne'matlarning qadriga yetmaslik qanday oqibat-larga olib kelishini tushundi.

Ovuldan ketayotganida hali mo'ylabi sabza urmagan yigit edi. O'qishga kirib, to'rt yil o'qidi. Har olti yo sakkiz oy deganda bir kelib-ketib yurdi. Amangeldi ota, o'g'lim o'qishni bitirsa qaytadi, deb o'ylagandi, Allaberdi qaytmadi. Ekologiyamidi, tabiatni asrashmidi-ey, nomi al-lambalo bir tashkilotga ishga kirdi. Tirishqoq, chayir bola edi. O'sha tashkilotda yaxshi ishlab kattalar e'tiboriga tushdi. Lavozimi oshdi, kat-talardan birining qiziga uylandi. Ovulda katta to'y qilishdi. Kelinning otasi boy ekan, to'yni o'zi qilib berdi, chol-kampirga og'irini tushirmadi. Bir hafta turdimi, yo'qmi, kelin ketamanga tush-di. Toshkanda yashaydigan bo'ldi. Ota keliniga qo'shib ketayotgan o'g'lidan picha gina qilib yurdi.

– Ota, Toshkanda o'qidim. O'sha yerda ishla-yapman. Keliningiz ortidan ketayotganim yo'q, – dedi o'g'il.

Lekin, baribir, birga ketdimi, birga ketdi. Ovulda rosa gap-so'z bo'ldi. Qari ota-onasini tashlab ketdi, deyishdi. Shaharda ishlaydi, de-gan gapga kim ham ishonardi. Ota bir mud-dat odamlar ko'ziga ko'rinishdan qochib yurdi. Ovuldagilar bilan gaplashmay yurdi. Vaqt o'tib gap-so'zlar unutildi. O'g'li o'sha ekologiya tash-kilotidagilar bilan bir necha bor ovulga kelib

ketgach, odamlar endi teskari gapira boshladi. Amangeldi otaning o'g'li kattakon bo'lib ketibdi, Orolni qaytararmish, degan gap oraladi.

3

Ota qo'lida narsa turmay, tushib ketaverganidan uyga mehmon kelishini taxmin qildi. Yaxshilikka yo'ydi, kimdir yo'qlab kelishiga ishora bildi. Kechga yaqin rayon hokimi "Assalomu alaykum, ota" deb kirib keldi. Shaxsan o'zi keldi.

- Allaberdijon kazo-kazolar bilan kelayapti ekan. O'zingiz mehmon qilasiz-da, ota. Nima kerak bo'lsa, ayting. Mana, biz bormiz, - dedi ko'krak kerib.

Mamat aldamagan ekan-da, xayolidan o'tkazdi ota. Shu tobda o'g'lining kelishi haqida o'ylarkan, "rostdan Orolga suv olib kelsa-ya" xayol qilardi. Allaqayerdan eshitgandi, Kaspiydan suv yo'li ochib kelinsa, Orol tirilishi mumkin emish, Kaspiydan suv olib kelinsa, Orol yana to'larmish... Biroq bunga kim ham rozi bo'lardi. Tana boshqa dard bilmas, deydilar. Jar solgan boshqa, jon koyitgan boshqa. Orol quriyotgani bilan kimning necha pullik ishi bor. Yo'q, ota unday o'ylamaydi. Necha yilki, keti uzilmayotgan olimlardan umidi bor. Bejiz kelib-ketmayotgandir, bir yo'lini topishar, deb o'ylaydi. Orolning bir kuni to'lishiga ishonadi. "Dengiz bo'lib, o'zaniga sig'may ketadi, hali", deb qo'yadi. Umidini hech so'ndirmaydi. "Bir uyum temir-tersakka aylanib qolgan kema-

larni qayta sozlash kerakmikan? Shoshib qolmasmikanmiz”, xayolidan o‘tkazib qo‘yadi.

– Bu gal ham chet elliklar kelarkan, ota. Ular nima yeydi, baliq yeydi-da, sizga besh-o‘n kilo laqqa berdirib yuboraman, – hokim tinmay gapirardi. Otaning esa qulog‘i tom bitgan, ko‘z oldida dengizning mavjlanib turgan suvlarida chag‘alaylarning g‘ujg‘on o‘ynayotgani gavdalanadi. Kemalarning oq yelkanlari quyoshda tovlanib, sohilda cho‘milayotgan bolalarning sho‘x qiyqirig‘i atrofni tutib ketadi.

Hokim otaning yuzidagi nimtabassumni o‘zicha tushundi, aytganlarim otaga ham ma‘qul keldi, deb o‘yladi, ko‘ngli xotirjam tortdi. Aslida-ku, ota busiz ham kelganlarni mehmon qiladi-ya.

– Mehmondorchilik moyli bo‘lgani yaxshi-da, ota. Nima dedingiz-a? – xir-xir kuldi. – Bo‘pti, men boray. Ota, sizga kuch-quvvat tilayman, – hokim qo‘lini siqib ko‘cha tomon borarkan, chol unga tikilganча, ortidan o‘ychan qarab qoldi. Hamon xayolida o‘sha dengiz bo‘lgan Oroli.

Ayjan xola o‘sha kuni tinim bilmadi. Uy tozaladi. “O‘g‘lim kelayapti, yana kim bilan, chet elliklar bilan”, ichida takrorlaganча, qo‘li-oyog‘i chaqqon borib keldi. Ko‘nglini g‘ash qilgan narsa, o‘g‘lidan ham ko‘ra nabiralarini sog‘ingani, o‘g‘li mehmonlar bilan kelayotgan bo‘lsa, ularni olib kelolmasligi aniq, o‘zicha taxmin qildi. O‘tgan gal kelganida, nabiralarini ko‘rib ko‘zi quvnagan. Bo‘yi o‘sib-ulg‘ayib borayotgan nabi-

ralari atrofida girdikapalak bo'lganini eslarkan, yuzi yorishib ketdi, xursand jilmaydi, biroq zumda sevinch o'rnini qayg'u egalladi. Xo'rsinib qo'ydi.

O'g'li Toshkandan uy olganidan keyin, ta'til bahona bir kuni keksa ota-onasini ham olib ketishga keldi.

– Yuringlar, birga yashaymiz. Bu yerlarda nima qilasiz? Dengiz endi yo'q, sahro bilan shamoldan o'zga nimasi qoldi. Yozda jazirama issiq, qishda qahraton sovuq, tuz bo'ronlari yopirilganida qayerga qochishni bilmay qoladi, kishi. O'zingizni qiynamang, – dedi ko'nglini qattiq qilib.

Qariya o'g'liga picha termulib turdi, bu gaplarni qanday aytayapti, Orolga mehri susaydimi, bilmoqchi bo'ldi. O'g'li bu gaplarni keksa ota-onasini ko'ndirish uchun aytayotgan ko'rinardi. Biroq bu gaplarning ahamiyati yo'q. Ota baribir ko'nmasligi aniq edi, Ayjan xola ham tug'ilib o'sgan vatanini tashlab ketgisi kelmadi.

– Shu yerlar ona yurtimiz. Tashlab ketolmaymiz, – deganiga ko'nmasdi o'g'li ham. Qistalang qilaverdi.

– Endi yosh emassiz, kimdir g'amxo'rlik qiladigan yoshdasiz. Yonimda bo'lsangiz, ko'nglim xotirjam, sizensiz qiyin menga ham, – dedi.

Ayjan xolaning ko'zlari yoshlandi. Otaning ham ko'ngli yumshadi. Biroq Orolini tashlab ketarmidi? Yo'q, tashlab ketmaydi. Shu yer-

da tug'ildi, shu yerda ulg'aydi. Ota-bobolarini bag'riga olgan shu makonni tashlab ketishga ko'zi qiyarmidi, yo'q. Tuz bo'ronlari tursa, nima bo'пти. Sahroga aylangan bo'lsa, nima bo'пти. Baribir tashlab ketmaydi. Orol bir kuni qayta dengizga aylanishini kutadi. Umri oxirigacha kutadi. Hatto bir-ikki hafta turib kelishga ham bormagan o'sha Toshkanga, butunlay ketarmidi, yo'q. Ketmadi.

- Bolam, o'lsam, shu tuproqda o'laman. Sening Toshkaning menga begona, yosh bo'lsam ekan, o'sha yerni makon qilsam. Endi bo'larim bo'lib bo'yovim singgan, - dedi. O'g'li yana og'iz juftlagan edi, - Orolimni ko'rmasam yasholmayman. Ikki qariya bir kunimizni ko'rarmiz, sen boraver, sening yo'rig'ing boshqa, - dedi.

Shu bilan masala yopildi. Ora-sira Ayjan xola Toshkanga bir-ikki borib o'g'linikida turib keldi. Lekin endi yoshi o'tib, yo'lga yaramay qoldi.

4

Diydor kabi shirin narsa yo'q. Kutasan, intiq bo'lasan, kutgan kuning kelganida esa, yuraging quvonchdan hapqiradi, dupir-dupir qiladi. Entikib ketasan. Ayjan xola ham shunday bo'ldi. O'sha kuni bir gala chet elliklar orasida o'g'lini ko'rganida yig'lab yubordi, bo'ynidan quchoqlab yig'ladi. O'ziga kelgunicha yig'ladi. Chet elliklar hayron qoldi, pichir-pichir qilib qoldi. So'ng maqsadga o'tildi. Hamma ishga kirish-

di. Tekshir-tekshir boshlandi. Yana nimalardir bo'ldi. Qaqrab yotgan qum barxanlariga uzoq tikilib turishdi. Qumliklarda tiqilib qolib ketgan kemalar oldida suratga tushishdi. Cho'kib borayotgan bandargohlarni suratga olishdi. Yas-tanib yotgan tuz tepaliklarini ko'rgani borishdi. Sahro-cho'l ustida uzoq tortishishdi, uzoq suh-batlashishdi, uzoq so'zlashishdi. Har galgidek o'tgan bu galgi uchrashuvdan ham biror natija bo'lar, deya ovul ahli yana kutadigan bo'lishdi.

So'ng mehmonlar otaning mehmoni bo'lishdi. Baliqlarni maqtab-maqtab yeyishdi, sara ichimliklar ichishdi. O'g'lini ham maqtab qo'yishdi. O'zlari bilan, qilayotgan ishlari bilan maqtanishdi. Bu galgi keldi-ketdi ham uch kun-bir haftaga cho'ziladigan bo'ldi. Olimlar ko'krak kerib nimalar bilandir mashg'ul bo'lishdi, jurnalistlar kameraga olishdi, intervyu so'rashdi, fotograflar yaxshi kadr izlab yurishdi. Orol haqida ko'rsatuv qilinadigan bo'ldi, qachon efirga uzatilishini telefon qilib aytadigan bo'lishdi. So'ng ketishdi.

Yana nima qoldi? Amangeldi ota qoldi, Ayjan xola qoldi, Mamat qoldi. Ular ortga qaytib ketishdi. Qop-qop va'dalar berib ketishdi. Lekin otaning yuragida umid qoldi, zora, bu galgi olimlar bir yo'lini topishar, degan umid qoldi. Orol bir kuni qaytadi, degan ishonch qoldi. Orol bizdan xafa bo'lgan, bir kuni arazini yig'ishtirib ortga qaytadi. Men uning o'zaniga to'lib-toshishini ko'raman yana. Yana yuz kilolab baliq tutaman.

Kuch-quvvatim bor hali, o'ylardi ota. Yana o'z qayig'im bo'ladi, ishonardi ota.

O'g'lining atrofida girdikapalak bo'lgan Ayjan xola ham o'g'lini kuzatib ma'yuslanib qoldi. Ko'ngli bir necha kungina to'lib turdi. Endi yana yarmi yo'q. Inson zoti bolasini buncha suymasa, jonidan paydo bo'lgan-da. Bo'lmasa shu qadar suyarmidi. Joni achib, jonining bittasidan kechib tug'gan-da, yo'qsa, shuncha sog'inarmidi. Bolam bolasini deydi. Necha kunlik umri qolgan, bilmaydi, umrining shu pallasida ham bolasini deydi. Ayni damda Ayjan xolaning qalbini o'rtayotgan zo'r bir alam, zo'r bir iztirob yuragini kuydirmoqda edi. Orol agar qurib qolmagani-da edi, avvalgidek to'kin-sochin hayot bo'lganida edi, o'g'li uzoqlarga ketib qolmasmidi?! Shu yerlarda, yaqinida yurgan bo'larmidi?! Shu yerlarni makon tutarmidi?! Ayjan xola xo'rsinib qo'ydi, ko'zlarini yuvgan yoshlarni keng, osilib turgan yengiga artdi. Uzoqlarga tikilib uzoq o'tirdi.

So'ng, "mayli", dedi, o'ziga tasalli berganday pichirlab. "Orol bahona o'g'limning diydorini ko'rdim, Orol bahona o'g'limning katta-katta davralarni to'ldirib o'tirishini ko'rdim. Orol bahona o'g'lim bugun o'z o'rnini topganini ko'rdim. Lekin Orol bundan hech nima ko'rmadi. Lekin bundan Orolga hech bir naf bo'lmadi". Ayjan xola bilardi. Choli Orolning qaytishiga ishonsa-da, u ishonmasdi.

5

Amangeldi otaning joni qattiq, deyishardi taniganlar. Chunki qishni qish demay, yozni yoz demay, qo'li mehnatda edi. Har kuni necha chaqirim yo'l bosib Orolni ko'rib kelardi. Yozda tuz bo'ronlari yo'lga to'g'anoq bo'lishga urinar, qishda tizza bo'yi qorlar yo'lini to'sardi. Lekin ota bo'sh kelmasdi. Uch g'ildirakli mototsikliga o'tirib o'sha ikki piyolagina suvni Orol suviga qo'shib kelmasa, bekor, turib turganday, o'tirib o'tirganday bo'lmasdi.

Ayjan xola pechkaga o't qalarkan, cholining hayallayotganidan bezovta bo'ldi. Bu galgisi doimigi bezovtalikka o'xshamadi. "Axir, yoshi bir joyga borib qolgan chol bo'lsa, yo'l-po'lda yiqilib qolsa, kim yordam beradi?" o'ylardi o'zicha. "Kim joniga oro kiradi?"

Qishda erta kech tushadi. Qorong'i oralagani sari Ayjan xolaning yuragi qinidan chiqib ketgudek urarkan, e'tibor bermaslikka tirishardi. Qo'li bilan o'tni turtarkan, xayoli tashqarida, "tiq" etgan tovushga quloq tutardi. Aytgandi-ya. "Borishingiz shartmi, bugun har kungidan sovuq, hamma uyida o'ranib o'tiribdi. Hech kim ko'chaga chiqmaydi bu sovuqda" deb. Quloq osmadi. O'sha termosini ko'tarib mototsiklini o't oldirdi. Motori muzlab qolgan, shekilli, qaynoq suv olib chiqib ustiga quydi. Yana nimalardir qildi. "Qani endi yurmasaydi", qarg'anardi, Ayjan xola. Yo'q, qarg'ishi o'tmadi.

Vaqt allamahal bo'ldi. Xolaning bezovtaligi chinga aylandi. Endi nima qilsam ekan, o'ylardi Ayjan xola. Tashqariga chiqay desa, bunaqa havoda, och chiyabo'rilar izg'ib yuradigan payt. Qo'li ishga bormas, qo'lidan hech ish kelmasdi. Pechka yaqiniga surildi, devorga suyanib Xudodan so'radi, iltijo qilib o'tirdi. Boshqa nima ham qila olardi, picha turib ko'zi ketgan bo'ldi. Eshikning g'iyqillashidan sergak tortdi. Choli-ning sharpasini sezib ancha xiralashib qolgan ko'zlari bilan uzoq tikilib turdi. Eshikka suyanib hamma yog'i muzlab tarashadek qotib qolgan choli turardi, yakkam-dukkam soqoli qorli, oppoq edi. Ayjan xola shoshildi.

– Zarilmidi shu sovuqda? Odamni gapiga kirsangiz bir nima bo'lib qolasizmi? – tinmay javrardi.

Pechka ustidagi qumg'ondan issiq suvni tog'oraga quydi. Sovuq suv keltirib qo'shdi. Tarasha bo'lib qolgan kiyimlarni bir boshdan yecharkan, “kuf-kuf” qilib cholining muzlab qolgan badanini isitishga urinardi. Iliq suvda tanasini yuvib, so'ng taftida isib tursin deb pechka yaqiniga qo'ygan yangi kiyimlarni kiygazdi. To'shaka yotqizib ustiga qalin ko'rpa tortarkan, og'zi javranishdan to'xtamasdi.

– Ko'rdingizmi o'sha Orolingizni? Ko'nglingiz joyiga tushdimi endi?

Ota indamadi. A'zoyi badani titrardi, xolos. Ertalab otaning isitma aralash g'o'ng'irlagani eshitildi.

– Orolimni qaytganini ko'rarmikanman, kampir? Nima deysan? Bo'ldi, endi bormayman. Endi o'zi kelsin. Mana necha yilki, kanda qilmay qatnadim, Orol tobora kichrayaverdi, suvi kamayaverdi, meni chorlagandek, ortga ketaverdi. Endi men bormayman, kampir, eshityapsanmi, endi o'zi keladi, – hansirardi ota.

Ayjan xola cholining qaqrab qolgan lablariga suv tutarkan, isitmada yonayotgan badaniga qo'lining orqasini tutib ko'rdi. So'ng piyolaga dori tayyorlab ichkazgach, ro'molini to'g'riladi-yu, ko'chaga otlandi.

– Mamatga aytaman, do'xtirni olib keladi. – Cholining eshitgan-eshitmaganini bilmasada, shu so'zi bilan o'zicha ruxsat so'ragan bo'ldi.

Tong yorisha boshlagandi. Mamat erta sahardan Ayjan xolaning kelishini kutmagani aniq. Hayron bo'ldi. Palapartish taranib doktorga shoshildi. Ayjan xola ortga qaytarkan, hansiragancha, yo'l-yo'lakay kecha tundan beri takrorlayotgan so'zlarini pichirlab kelmoqda edi.

– Ey, Xudo, cholimning jonini omon saqla! O'zing asra! Sendan bo'lak so'raguvchimiz yo'q, bizdan marhamatingni ayama.

6

Amangeldi ota o'g'li bilan vidolasholmadi. Qancha issiqlarga, qancha sovuqlarga dosh bergan tanasi bu gal pand berdi. Bu galgi sovuqni ko'tarolmadi. Ayjan xolaning paymonasi ham

to'lgan edi. O'zini zo'rg'a tutib turardi. Ellik yildan ortiq birga yashagani – yarmini yo'qot-sa-yu, qanday yashayveradi? Qanday qiladi endi? Tanasi borib kelardi, dodlar, biroq ovozi chiqmasdi, sannab-sannab qo'yardi. Endi cholimsiz bu dunyoda qanday yashayman-a? Endi bu dunyoda kimga suyanaman-a?

Ko'zyoshlarining duv-duv oqayotganini ko'rgan yosh-yalanglar unga qo'shilishar, sannashiga jo'r bo'lishardi. Ikkitasi madori qolmagan Ayjan xolaning qo'ltig'idan tutib o'tirishardi.

Uzoq yo'l. Insonlarni ajratib turuvchi, ularga azob beruvchi ham shu yo'l. Uning nishi botmagan ko'ngil yo'q. U ayirmagan ko'ngil yo'q. O'g'li yetib kelgan kun Ayjan xola peshvoz chiqolmadi.

Allaberdi otasidan ayrilgani yetmaganidek, bir kunda onasidan ham ayrilib qoldi. Ikki qabr orasida o'tirarkan, boshidagi do'ppisini qo'llari orasiga olib ko'zlarini yashirishga urinardi. Biroq ho'ngragan ovozini tutib turolmadi. Orqaroqda o'tirgan o'g'illari qo'ltig'iga kirib ortga qaytishayotganida, ularga suyanib borardi.

Tug'ilib o'sgan ota uyiga qaytib bolaligini xotirladi. Onasini etagidan ushlab ortidan pildirab yurgani, otasining qo'lidan tutib birinchi bor Orol bo'yiga borganini esladi. So'ng otasining choponini ustiga tashladi, kirza etigini kiydi. Otasining mototsiklini o't oldirdi. Bolaligida shu mototsiklga o'tirib Orol bo'yiga borganlari yodida edi. Endi kap-katta odam, endi o'g'il-

lari uning yoshida. Mototsikl yelib borardi. O'sha yo'l hali-hamon esida. Orolga eltuvchi uzun yo'l bu.

Orol uzoqdan ko'rinish berdi. Oroidan uzoqroqda to'xtadi. Kirza etikda shaloplagan cha Orol bo'yiga kelib cho'kdi. Kirza etik yarmigacha botib ketdi. E'tibor bermadi. Orolga yuzlanib, bor ovozi bilan hayqirdi:

– Ey Orol, yig'lamaysanmi? Endi seni ko'rgani keladigan sening mehriboning yo'q. Senga har kuni suv olib keladigan Xizring yo'q. Ko'rgani bormaysanmi, hech yo'q, qabrini ziyorat qilmaysanmi? Qarzingni to'lamaysanmi? Sening to'lganingni ko'rolmagan otam-a, seni suvga to'ldirolmagan otam-a. Sening armoning bilan o'tib ketgan otam-a, otam.

Ovozi bo'g'ilib, kuchi qolmay yuztuban yiqildi. Orol ko'pik to'lqinlari bilan uning yuzini chayishga oshiqardi. Orol qoshida bir inson sajda qilib yotardi. Orol esa jim. Hech bir sado bermas, ma'yus kuzatardi, xolos.

SENI YAXSHI KO'RAMAN, MINO!

– Meni sevasanmi o'zi, Mino?

Xotining ertalabdan bergan g'alati savoli g'ashini keltirdi.

– Nima gap, azizim? Birga yashayotgan bo'lsak, qolaversa, bolamiz bor. Yana senga nima yetishmaydi? – ming'irladi jahli chiqib.

– Bilmadim, xayolimda meni sira sevmaydiganga o'xshaysan.

Mino indamadi. Yo'qsa, xotini shu choqqacha o'ylab yurgan bir nechta faktlarni qalashtirib tashlaydi-yu, mot qiladi. O'zini oqlagani befoyda, xotini, baribir, gapini ma'qullab turaveradi. Bunday paytlarda g'olib bo'laman desang, mum tishlagan ma'qul.

Mino nonushtaga o'tirarkan, eng avval stol chetida yotgan gazetaga qo'l cho'zdi, so'ng hozirgina damlangan qahvadan bir ho'plam icharkan, gazetaning bosh sahifasidagi "Muhabbatmi yo..." sarlavhali yangilik e'tiborini tortdi. Unda mashhur qo'shiqchining ikki ayol o'rtasida talash bo'layotgani haqida so'z borardi.

– Tavba, odamlarga ham hayronsan, muhabbat deb har narsaga tayyor, – dedi "shirq" etib ikkinchi sahifani varaqlarkan. – Xo'sh, senga nima beradi o'sha muhabbat, uylanib bola-chaqa qila-

san. Keyin-chi? Oila, bolam-chaqam deb umring o'tib ketganini bilmay qolasan.

Uning maqolani o'qib, xulosa kabi aytgan bu gaplari xotiniga tegib ketdi.

– Mino, inson yolg'iz yashab ham o'sha umri-
ni o'tkazadi, undan ko'ra oilang uchun yashash-
ning nimasi yomon? – dedi qo'lini beliga tirab,
erining qarshisiga kelib olarkan.

– Ha, to'g'ri, – deb qo'ydi-yu, Mino qahvani
oxirigacha ho'plarkan, gazetani bir chetga uloq-
tirib, portfelini olish uchun xonasiga kirib ketdi.
So'ng ishga otlandi. Eshik oldida o'g'li papkasini
orqasiga ilib, doimgidek tayyor turardi.

– Mayli, azizam, men ketdim. Seni sevaman,
– deb qo'shib qo'ydi biroz oldingi vaziyatni yum-
shatishga urinarkan.

– Men ham, azizam. Nihoyat, – dedi eshiti-
lar-eshitilmas ayoli. So'ng, – yaxshi borib kel, –
deya yuzida tabassum bilan xayrlashdi.

Mino uydan chiqib, imtihon topshirgandek,
chuqur nafas olib “uh” tortdi-yu, lift tugmasini
bosdi. Avval o'g'lini eshik oldidan olib ketadi-
gan avtobusga o'tirg'izib, so'ng ishga jo'nab keti-
shi haqida o'yladi. Lift ichiga kirishgach, o'g'li
shoshib birinchi qavat tugmasini bosdi, Mino
esa xotirjam, doimgidek oynaga qarab bo'yin-
bog'ini to'g'rilarkan, e'longa ko'zi tushdi. “16-qa-
vatga yangi qo'shni ko'chib kelmoqda. Soat 9:00
da”. Tagida bugungi sana yozilgandi.

“Obbo, yana taqir-tuqur ekan-da”, – jiyirindi. Odatda ko’tarma kran yuklarni tepaga tashiyotganida qattiq tovush chiqaradi, ertalabdan boshlangan taraqa-turuq gohi ertaroq, gohi kechroq tugaydi. Shuni o’ylarkan, “Bugun kechroq kelaman”, – dedi ichida. O’n oltinchi qavat. Birdan miyasiga urdi. Bizdan bir qavat tepa qo’shni-ku. Endi liftda kunda-kunora ko’rib qol-sa ajab emas, shuni o’ylab liftdan tashqarilarkan, eshikdan chiqaverishdagi kran va uning oldida yig’ilib turgan bir nechta odamga ko’zi tushdi.

Eshik ochildi-yu, tashqari chiqib, yuk tashuvchi bilan gaplashayotgan yoshgina juvonga qaragancha qotib qoldi.

* * *

Yunso bilan to’qqizinchi sinfgacha bir maktabda o’qishgan. Qarama-qarshi binoda turishardi. O’shanda Mino basketbol klubiga qatnar, Yunso esa basketbol ishqibozi edi. Maktabda sinflar o’rtasida o’tkazilgan musobaqa finalida Minoning harakatlari bilan guruh g’olib chiqqan, o’sha quvonchli kun hamon esida.

Musobaqadan so’ng Mino va uning guruhdoshlarini bir gala sinfdosh qizlar o’rab olgan, qiyqirishmoqda edi. Bir payt Yunso ular orasidan ajralib chiqdi-da, Minoning oldiga kelib, turgan yeridan biroz oldinga intildi va uning qu-log’iga shivirladi:

– Men seni yaxshi ko’raman, Mino!

O'n olti yosh qizning bu jasorati tahsinga sazovor edi. Mino qisiq ko'zlarini boricha ochib, Yunsoning yuziga hayrat bilan boqardi. Bu so'z unga juda boshqacha eshitildi. U Yunsoga tikilib turarkan, yigit-qizlarning qiy-chuviga parvo qilmas, bir so'z demas, tarashadek qotib qolgan, yutinib qo'ydi, xolos.

Shundan keyin Mino Yunsoni har ko'rganida g'alati bo'lib ketar, unga e'tibor bilan qarardi. O'n olti yoshli yigitcha go'yoki aql-hushidan ayrildi. Biroq bu uzoq cho'zilmadi. Yil yakuniga yetmay dadasining lavozimi oshgani sabab, Minoning oilasi boshqa shaharga ko'chib ketadigan bo'lishdi.

O'sha kech onasi bilan birga yuklarni taxlayotgan edi. Eshik qo'ng'irog'i chalinib, Mino eshik qarshisiga chopib bordi.

– Kim u? – dedi eshikni ochishdan avval.

– Men Yunsoman, – mayin eshitilgan bu ovozni tanidi. Eti jimirlab ketdi.

Eshik zulfini tushirarkan, ichidan kelayotgan qaltiroq bir zum kuchaydi. Eshikni ochdi-yu, hayrat to'la ko'zlari bilan Yunsoga tikilib qoldi. U ham bir so'z demas, Minoga qarab turardi, xolos.

– Kim ekan, Mino? – Onasining ovozidan so'ng Yunso taraddudlanib qoldi. Qo'lidagi maktubni uzatarkan, shoshilibgina dedi:

– Men seni sabr bilan kutaman, sen o'qiysan, bilaman, so'ng katta kompaniyaga ishga kirasan. Men ham o'qiyman. So'ng meni topib kelasan, biz yaxshi oila bo'lamiz.

Mino onasi tomon yana bir ko'z tashlab ortga qaragunicha, Yunso lift ichiga kirib ulgurgandi. Lift eshigi yopilarkan, uning palapartish taralgan sochlari, xiyol bo'rtgan chiroyli yonog'i Minoning ko'z oldida qotib qoldi. Unga bir so'z aytishga-da ulgurmadi. U ketdi, u Yunso qoldirgan qog'ozning taxlamlarini birma-bir ochdi. Maktubda nozik bir qizning katta bir yurakni qo'llarida ko'tarib keta-yotgani tasvirlangandi. Uning muhabbatiga ishora edi bu.

Ular ko'chib borgan yangi uy oldingisidan kattaroq, yaxshiroq edi. Eng muhimi, maktab yonginasida. Biroq avvalgi uyidan juda-juda uzoqda.

Mino o'qishni bitirayotgan yillar otasining kompaniya direktorligiga nomzodi qo'yildi. So'ng qarshiliklarsiz tasdiqlangach, Mino universitetda o'z yonidan qiynalmay o'qidi. Endi ulg'ayib qolgandi. Bir kuni o'sha qog'oz eski daftarlari orasidan chiqib qoldi-yu, Mino Yunsoni izlab eski uyi tomon yo'l oldi. Biroq kutganidek bo'lmadi, Yunsoning oilasi ham boshqa shaharga ko'chib ketishgandi. Mino uni uzoq izladi, biroq topolmadi.

Universitetni bitirgach, dadasining kompaniyasida ish boshladi. So'ng dadasining biznes hamkori bo'lmish janob Chenning qiziga uylandi. U yoqimtoygina edi. Uning har qanday yigit sevib qolsa arziydigan husni bor edi.

* * *

Mino Yunsoga tikilib qoldi, o'g'lining "Dada, avtobus keldi" deb qo'lidan tortqilayotganiga parvo qilmasdi. Yunso Minoga ko'zi tushdi-yu, birdan ko'zlarini olib qochdi. So'ng yonidagilar-ga gapirishda davom etarkan, Mino ham o'g'li tortgan tomon beixtiyor yurib ketdi. Balkim, u ko'zlarida hali ham so'nmagan muhabbatni Mino ko'rib qolishidan cho'chigandir...

Bu hikoyani menga koreys dugonam Chxe Yuna aytib bergandi. Unga onasi so'zlab bergan, hoynahoy.

OXIRGI KECHA

Turob aka uyi yaqinidagi do'kon yonidan o'tayotib, bir nima ilinjida shu yaqin atrofda ivirsib yurgan to'rt-beshta eski oshnasini ko'rdi-yu, yana ichkilikning xumori tutdi. "Har safar ichishga bahona topiladi-ya", o'yladi ichida. "Bugun yangi yil kirib kelayotgan bo'lsa, eskisi bilan xayrlashuv bahona ichmasak bo'lmas? Sheriklar bo'lsa, bor". Do'kon tomon burildi.

Do'kon yonidagilar Turob akani ko'rib quvonishdi. Bir yerga yig'ilishsa, aroqqa pul topiladi. Bu gal ham hamma yonidagi bor pulini chiqazdi. Ikkita achchiq suv bilan uch-to'rtta sho'r bodring olishdi-yu, do'kon yonidagi eski o'rindiqlarni birlashtirishdi. Do'kondor ham yangi yil oldi savdo yurishganidan xursand. Ichgan odamning tezda qorni ochiqadi, so'ng qarzga yozdirib narsa olaveradi, olaveradi...

Do'konchi bergan stakanlarga oz-ozdan quyishdi. Yutoqib ko'tarishdi. Bayram bilan bir-birlarini tabriklashdi. Eskirayotgan yilda bo'lgan bir-ikkita voqealarni eslashdi. Gap talashishdi. So'ng har kim o'zinikini ma'qulladi.

Dunyoda mast kishidan rasvorog'i bo'lmaydi. Yuvosh odam ichsa, bir qurga, noboproq odam ichsa tamom. Turob aka ana o'shanaqalar xilidan. Ichsa, o'zini bilmay qoladi. Ko'ziga ko'rin-

gan narsa borki, uloqtirgisi, dunyoni ostin-ustun qilgisi keladi. Xotini zirillaydi. Ko'chadan mast holda kirib kelsa, o'zini ichkari uradi, qochadi. Eri yetib olgudek bo'lsa, ayamay uradi.

Xotinini uy ichidan topolmasa, uni-buni sindiradi, ag'dar-to'ntar qiladi. So'ng yotib uxlab qoladi. Xotini eri uxlaganidan keyingina yashiringan joyidan chiqadi. Ikki orada bolalar sarson, qizi-ku mayli-ya, o'g'li ham otasiga yaqin yo'lamaydi, qo'rqadi. Qizi onasining ortidan ergashadi, onasiga qo'shilib yashirinadi, qorong'ida yurak yutib o'tiradi.

Bugun yangi yil kirib keladigan kun. Ertalabdan Munojot opa pishir-kuydirga sho'ng'ib ketdi. Somsa qildi. O'rama pishirdi. Bolalar onasiga yordamlashishdi. Kech tushib xontaxta ustiga dasturxon yozildi, meva-cheva, pishiriq... Bir yilda bir marta bo'ladigan bayram, axir. Choynakka choy damlab, dimlamani suzishga shay qilib qo'yganida, darvoza taraqladi. Bu taraqturuqdan Munojot opaning yuragi shuv etdi. Bolalar zirilladi.

Kunduzi ham ona-bola shu haqida gaplashishgandi:

- Bugun dadam ichib kelmasin-da, ishqilib,
- o'n yashar qizchasining yalingannamo tovushida bir o'kinch bor edi. Bu gapni eshitib Munojot opaning yuragi uvishdi, bolasiga rahmi

keldi. Qo'lidagi sochiqni bir chetga qo'yib, qizini bag'riga bosarkan:

– Ichib kelmaydi. Dadang o'tgan gal qasam ichgan. Endi ichmayman, degan, – dedi aslida o'zini yupatib.

Taraq-turuq kuchaydi. Darvozani ochishga na onaning, na bolalarning yuragi dov bermasdi. Ichib kelmasa, bunaqa taraqlatib o'tirmaydi, eshik orasidan qo'lini tiqib zulfini tushiradi-yu, jimgina kirib kelaveradi.

– Bor, eshikni tez och, – dedi o'g'liga. O'g'li chopib ketdi.

Munojot opa oldi un fartugini yechdi-yu, narigi xonaga o'tdi, stol tagiga kirib oldi. Qizi ortidan engashdi.

Turob aka uyga kirar-kirmas o'g'lidan onasini surishtirdi. O'g'li miq etmadi. Ko'zida qo'rquv, kuzgi yaproqdek titrab turardi. Turob akaning hushi o'zida emas, og'zidan qo'lansa hid anqir, ko'zi ola-kula, “qani, qani” derdi faqat. Odat bo'lib qolgan, ichib olganida xotinini bir-ikki tepkilamasa, xumoridan chiqmaydi. Qo'li o'rganib qolgan, he yo'q-be yo'q, urgisi kelaveradi.

* * *

Munojot opaga ham qiyin. Shunaqa er bilan chidab yashashdan boshqa iloji ham yo'q-da. Ota uyiga qaytgani bilan bir haftaga qolmay, akalari olib kelib qo'yishadi. Onasi erta qazo qilgan.

O'gay ona chiqishtirmaydi, akalarinikiga borsa, yangalari...

O'shanda qo'ni-qo'shnilar o'gay ona qo'lida qolgan o'n sakkiz yashar sho'rlik qizga rahmi kelib, yaqin oradagi qishloqdan taqdiri o'zinikiga o'xshagan shu Turobjonni topishgandi. Taniganlar "Yaxshi yigit, toparman-tutarman" deb maqtagan. O'zi avvaldan irodasi bo'shroq ekanmi, uylangach, bir-ikki yilga bormay ichkilikka mukasidan ketdi. Mahalla-ko'y oraga tushdi, oqsoqol aralashdi.

Otasining gapi o'tmaydi, tili qisiq. Bir paytlar o'gay ona qo'lga topshirib qo'yilgan Turobjon otasidan najot topolmagan. Shu-shu, ota-o'g'il munosabati sovuq, bir-biriga begonadek. Qiynoqlar ostida o'sgan murg'ak bola ongida o'tmish shu tariqa bo'y ko'rsatgandir. Ehtimol, o'gay onaning yillar davom etgan zug'umi sabab ayol zotiga nisbatan nafrat tuyadigan bo'lib qolgandir. Balki, xotinining siymosida o'gay onasi gavdalanar...

- Nima qilay, ichib olsam, o'zimni bilmay qolaman,- dedi yig'lamoqdan beri bo'lib.

Oqsoqol yelkasiga qoqdi:

- Yigit kishisan, axir. Irodali bo'lishing kerak. O'zingni qo'lga ol. Boshqa ichma, qara, gulday farzandlaring bor. O'g'ling sendan o'rnak oladi.

Oqsoqolning oxirgi so'zlari sergaklantirdi.

- Boshqa ichmayman, - qasam ichdi.

* * *

Bezatilgan dasturxonni ko'rib Turob akaning battar jini qo'zidi.

– Bayram qilayapsanlarmi? Qani onang, chiqsin bu yoqqa, – derdi oyog'ida zo'rg'a tebranib turarkan. Xotini chiqsa, bahona topolmasa ham, baribir, uradi. “Dasturxonda bitta bo'lsa ham aroq yo'q”, o'yladi ichida. Shu tobda yana ichgisi kelib ketdi. Achchiq ustida kaftining orqasi bilan piyola-choynak aralash turtib yubordi. Choynak to'shak ustiga yonbosh tushdi, choyi to'kildi, xolos. Dasta bo'lib turgan paxtagulli piyolalar esa sal nariga uchdi-yu, chil-chil sindi. Baribir alamidan chiqmadi. Noz-ne'mat to'la dasturxonni qisimida g'ijimlab o'ziga tortdi. Hamma narsa aralashib yer bilan bitta bo'ldi. Turob aka o'g'lining yosh to'la ko'zlarini ko'rmadi. Unga teskari yurib boshqa xonaga o'tdi. Yurak yutib o'tirgan xotinini stol tagidan topdi. Sochidan tortqilab chiqardi. Qars-qurs tovushdan so'ng xotining ingragani eshitildi.

Ayolni niholga o'xshatishadi, biroq joni qirqta bo'ladi. Yo'qsa, shuncha tepkilarga dosh bera olarmidi? O'g'li dadasining qo'lga yopishdi.

– Onamni urmang, – dedi yalinib.

Qizi oraga tushdi.

– Dadajon, jon dadajon, urmang onamni, – dedi yolvorib. Turob aka parvo qilmadi. Shirakayf ko'ziga na qizi, na o'g'li ko'rindi.

Bir-ikki tepkilagach, xumori bosilib, yana qaytib oshxonaga o'tdi. Dasturxonni noz-ne'matlar aralash yerda qorishib yotgan xontaxtaning boshqa tomoniga yotib uxladi.

Munojot opa bu gal o'rnidan turolmadi. Ro'molini izladi, qulog'ini ushlab ko'rarkan, qizi bir chetda yotgan ziraklarini ko'tarib keldi. O'g'li ro'molini to'g'riladi. Bolalarning ko'zidan yosh quyilib kelardi, Munojot opa ularga ma'nosiz tikilib turar, hech hushini yig'ib ololmas, o'rnidan qo'zg'ololmasdi.

Alamli kecha edi bu. Endi ortga qaytmaydigan eski yilning oxirgi kechasi. Umid va orzularga to'la yangi yil esa allaqachon kirib bo'lgandi.

YUKIONING TANLOVI

Yukio negadir bugun erta uyg'ondi. Doimgidek yuzini yuvmasdan avval bir finjon qahva damladi, keyin esa ayvonga chiqib, atayin qo'yilgan tebranma stulida o'tirgancha, xayol og'ushiga cho'mdi. O'n beshinchi qavatning oyna bilan qoplangan ayvonidan butun ko'chani kuzatish mumkin. Kechasi bilan yoqqan yomg'ir daraxtlarni bir sidra cho'miltirib olgan, xiyol ochiq derazadan bahor isi kirib turardi. Bulutlar esa hanuz tarqab ulgurmagandi. Yukio yengi kapalaknusxa harir ko'ylakda, qahvadan har ho'plaganida tanasiga issiq yugurib huzur qilar, borib kelayotgan mashinalarni ishtiyoq bilan kuzatardi.

Uyi katta ko'channing bo'yida joylashgan, atrof ko'p qavatli binolar bilan o'ralganiga qaramay, ko'channing ikki yuziga qator daraxtlar ekilgandi. "Qayerga qarama, osmono'par binolar-a", Yukio xayolidan o'tkazdi. Uning ota uyi qishloqda, panna-pastqam bir jin ko'chada joylashgan. Hatto alohida mehmonxonasi yo'q torgina kulbada olti jon yashashardi. Yukio asli yaponiyalik, ko'plab vatandoshlari kabi koreys yigiti bilan turmush qurgan.

Mana, o'n yilki Koreyada yashaydi, yilda ikki yo uch marta, goho ish bilan, gohida sayohat ba-

hona ona yurtini ko'rib keladi. Eri ancha yillardan beri ishlayotgan kompaniya Yaponiyaning nufuzli bir firmasi bilan hamkor. Eri ham ish sabab Yaponiyaga ko'p boradi. Ana shunday safarlarining birida tanishishgan.

Avvallari koreys oilasiga yapon qizining kelin bo'lib kelishini tasavvur qilish qiyin edi. Qariyalar tarixda yapon askarlarining koreys xalqiga bergan mislsiz azob-uqubatlari haqida ko'p gapirishardi. Yangi avlod esa negadir bunga e'tiborsiz bo'lib ulg'aydi. "Hammasi tarixda qolib ketdi. Hozirgi avlodning nima aybi bor?". Dongho ham to'ylariga qarshilik qilgan ota-onasiga shu javobni aytdi. Ular mum tishlab qolishdi. Qolaversa, Dongho ular bilan birga yashamaydi-ku.

Yukio bilan tanishganlarida orada sevgi paydo bo'ladi, deb o'ylamagandilar. Shunchaki tanishuv, shunchaki uchrashuvlar bir-biriga ulanib ketdi. Birga sayrlarning boshi-keki ko'rinmasdi. Ular doim birga edilar. Yukio Koreyada o'qigan paytlari munosabatlari yanada mustahkamlandi. So'ng birga yashashga qaror qilishdi. Dongho Yukioni butunlay Koreyada olib qolishni istardi. Dongho yaxshi inson, yaxshi do'st, yaxshi turmush o'rtoq. Mana o'n yilki, birga hamnafas.

Yukioning o'n yil oldingi husnidan hozir asar ham qolmagan. Har qancha urinmasin, inson qa-

rishni ortga surolmas ekan. Yuzlariga ajin tushgan, sochlariga oq oralagan, o'zi esa yana ham oriqlagan. Yangi kelin bo'lib kelgan paytlari o'ttiz besh yoshda edi. Yurish-turishida yapon ayollariga xos nazokat bor edi. Tabassumidan guldek noziklik, harakatlarida esa nafislik ufurib turar, istarasi issiqqina, yoqimtoygina qiz edi. Hozir esa sochlarini ming kalta qilib kesmasin, yoshlarga xos kalta-kulta kiyimlar kiyib yurmasin, baribir qarilik soya solmoqda. Hayot shunaqa ekan-da.

Dongho esa o'sha-o'sha, ozgina baqaloqlashdi, ko'zoynakning yumaloqrog'ini taqa boshladi, ha, yana, sochlarining oqarganlari Yukionikiga qaraganda kamroq.

– Azizim, qayerdasan? – Donghoning doimgidek chiyildoq ovozi eshitildi.

Uning gavdasiga nomunosib ingichka ovozi negadir, Yukioga unchalik kulgili tuyulmay qolgan. Avvallari Yukio bu borada turli hazillar qilar, erining huda-behuda g'ashiga tegardi. Yukio asta o'rnidan qo'zg'aldi, qahvaning oxirgi ho'plamini icharkan, Donghoning:

– Qora bo'yinbog'imni topolmayapman, – degani eshitildi.

Yukio mehmonxona ichidan o'tib yotoqxona-ga kirdi.

– Kiyimlaring orasida turgandir, qaramadingmi? – dedi g'amnok.

- Shoshilyapman, xotirimdan ko'tarilibdi, erta tongdan gul buyurtma qilishim kerak edi.

- Tinchlikmi? - so'radi Yukio hayron bo'lib.

- "Elim interneyshtnl" ning direktori olamdan o'tibdi, bugun kechqurun dafn marosimi.

Odatda kimdir vafot etsa, hamkor tashkilotlar, tanish-bilishlar nomlari yozilgan guldasta buyurtma qilishadi va marosim o'tkazilayotgan joyga yuborishadi. Bu alohida hurmat belgisi hisoblanadi.

- Mana, - dedi Yukio qora bo'yinbog'ni uzatarkan. So'ng oshxonaga o'tdi. Muzlatkichdan tezpishar nonushtaning bittasini oldi-yu, idishi bilan isitkichga qo'ydi. Qahva damladi. Dongho shoshib nonushta qildi. So'ng "Yaxshi qol, azizim" deganicha qo'l silkib chiqib ketdi.

"Har kuni shunday - bir xil hayot", o'yladi Yukio. Erining ko'p vaqti ishda o'tadi. Yukio ham ba'zan kech keladi, lekin Yukio ishlayotgan kompaniya ayollarga yengillik bergan, soat oltidan keyin ketishlari mumkin. Uyg'a erta qaytgan Yukio ko'pincha yolg'izlikka mahkum kishiday tanho qoladi. Eri ishdan qaytgunicha kutib o'tiradi. Ba'zan nimadir o'qiydi, ba'zan zerikadi. "Ta'tilgacha hali ancha bor. Biron nima o'ylab topish kerak..." g'udranib qo'ydi.

Nonushtani yig'ishtirarkan, beixtiyor xayol olib qochdi, "Elim interneyshtnl" haqida o'yladi.

Dongho bu kompaniya rahbari haqida ko'p gapirgan. "Ko'ngli bo'sh odam, xayriya tashkilotlaridan pulini ayamaydi, cherkovga muntazam qatnaydi. Bu odam o'lsa ham to'g'ri jannatga tushsa kerak", – degandi Dongho o'shanda.

"Qanday inson bo'lmaylik, hammamiz ham bir kuni o'lamiz", dedi Yukio o'ziga-o'zi. "Ozgina umrni qanday yashash esa o'zimizga bog'liq". U yelkasida og'ir yuk bordek enkayib olgandi. Dafn marosimini ko'z oldiga keltirdi. Tumonat odam. Tashkilotlar nomlari yozilgan guldastalarga to'la xona. "O'lgan odam uchun endi bu gullarning ahamiyati yo'q. Odam bo'yi barobar keladigan bunday guldastalarning bahosi qimmat tursa kerak?! Bu odatni kim o'ylab topgan ekan-a?" Yukio chuqur o'yga cho'mgancha o'rindiqqa qayta o'tirdi. "Odamlar bu dunyoda o'zini qiynab yashaydi, qiynalish uchun esa har turli narsalar o'ylab topishadi", shu xulosaga keldi.

Bu o'y-fikrlar Yukioning xayolini anchadan beri band qiladi. Dongho yaqin besh yil oldin, farzand haqida so'z ochgandi. O'shanda Yukio aynan shunday javob bergan:

– Dongho, azizim, o'zingni qiynab nima qilasan? Kel, o'zimiz uchun yashaylik. Sen va men. Ortiqcha dahmaza, ortiqcha chiqim nimaga kerak? Hayotdan zavqlanib yashasang-chi, oyoq-

laringga tushov qo'yib nima qilasan? Erkin yashash qanday yaxshi!

Dongho jim qolgandi. So'ng bir necha kun boshi xam yurgan, Yukioning gaplari haqida o'ylab ko'rgan bo'lsa kerak. Keyinroq Yukioning qarorini ma'qullagandi:

- To'g'ri aytasan, azizam. Bola katta qilib nima foyda ko'rish mumkin. Mana, o'zimiz - ota-onamizga qanday nafimiz tegayapti? Aytchi? Sen ulardan uzoqdasan. Men ham ulardan ayro yashayapman. Oyiga besh yuz ming von berib turishimni hisobga olmaganda, ularga hech qanday yordamim tegmaydi. Agar yoshlikda yaxshi ishlab, ertangi kunimiz uchun mablag' jamg'arib qo'ysak, bolalarga ehtiyoj ham yo'q, albatta. Fikringga qo'shilaman.

Mana, yillar o'tdi. Yukioning fikri hamon o'zgargani yo'q. Ba'zan Dongho bilan kechki tushlik qilgani u yoq-bu yoqqa borishganida, restoranda yugurib yurgan bolalarni ko'rib kayfiyati buziladi. Ovqatlanib o'tirganlarida, bolalari sabab shovqin ko'tarayotgan onalarga ko'zi tushib ranjiydi. Yosh bolalar ba'zan yig'laydi. Yukioning jahli chiqadi. "Yosh bolali ayol kafega borib nima qiladi? Axir, har joyning o'z qonun-qoidasi bor. Sening manfaating boshqalarga ziyon yetkazmasligi kerak. Shunday emasmi?"

Shunaqa paytlar kafe xo'jayini ming xijolatda yugurib keladi. Boshqa mijozlar bezovta bo'layotgani sabab, bolangizga e'tiborliroq bo'ling, deya onalarni ogohlantiradi. Biroq ko'p hollarda buni onalar tushunishni istamaydi. "Bola-ku, axir, qanday yupataman!" - deydi, shovqin ko'tarib. "Unda uyingda jimgina o'tir-da, boshqalar ham dam olgani keladi-ku", Yukio ichida shunday deb g'udranib qo'yadi.

Yukio nonushtani yig'ishtirib bo'lgach, kiyinib ishga otladi. Tashkilot eshigida kompaniya rahbari bilan tasodifan yuzma-yuz kelib qolishdi.

- Annyonghaseyo, - dedi yer barobar egilib.

- Annyonghaseyo, - dedi direktor e'tiborsiz bosh silkib.

Yukioning kayfiyati buzildi, biroq sezdirmaslikka tirishib jilmayib qo'ydi. Janob Kim zaharxanda odam. Achchiq-achchiq gaplaridan hamma bezor. Tabassum qilganini hali birov ko'rmagan. Dam olish kunlari bo'ladigan o'tirishlarda sira ko'rinish bermaydi.

"Oilasiga qiyin bo'lsa kerak", o'yladi Yukio. O'tgan hafta kadrlar bo'limi boshlig'i janob Chenni o'n daqiqa kechikkani uchun muztar qildi. Tartibni yaxshi ko'radi. Biroq odam texnika emaski, aniq ishlasa. Uydan har qancha erta chiqmasin, yo'l tirband bo'lishi mumkin, qolaversa, har xil kutilmagan holatlar..

Janob Chenning o'sha kuni tiz cho'kib uzr so'ragani ishchilar orasida muhokama bo'ldi.

– Men bo'lganimda bunday qilmasdim, – dedi Yukio bir stol narida o'tirgan dugonasiga qarab.

– Sen oila boshlig'i emassan va eshikdan kirganingda qo'lingga qarab turadigan bolalaring yo'q, – dedi dugonasi negadir shartakilik qilib.

– Ha, to'g'ri, – dedi Yukio. – Aynan shuning uchun ham bolam bo'lishini istamayman. Seni nimadir qilishga majbur qiladigan, senga har xil noqulayliklar tug'diradigan, erkin yashashingga qo'ymaydigan narsalardan voz kechish kerak.

– Yukio, sen shunday o'ylaysan, xolos, – dedi dugonasi bo'sh kelmay. – Aslida, farzand dunyodagi eng katta quvonch. Onalik qanday baxt ekanini sen hali bilmaysan.

Yukioning qovog'i osildi.

– Agar men qayta dunyoga kelsam, – dedi dugonasi yana nimadir qolib ketganday, – xuddi shunday taqdirni tanlagan bo'lardim. Mayli, bolalarim sabab ba'zan tunlari uxlamay chiqay, mayli, ba'zida kasal bo'lib menga tashvish orttirishsin, ularning borligi men uchun baxt, ularning ulg'ayayotganlarini ko'rish, ularning yutuqlaridan quvonish butunlay boshqacha tuyg'u. Uni tasvirlab berishim qiyin.

Yukio o'zini go'yoki eshitmayotgandek tutardi.

– Ha-ya, yana bir gap, – dugonasi Yukioning janob Chen haqida aytgan gapidan boya qattiq jahli chiqqan, shuning uchun ham Yukioning nohaq ekanini isbotlashga urinmoqda edi. – Bilasanmi, hattoki hayvonlar ham bola ko‘rib, bolalarini avaylab oyoqqa turg‘azadilar. Chunki Xudo har biriga ona bo‘lishdek baxtni bergan.

Yukio og‘iz juftladi. “Kimga nimani ravo ko‘rgan bo‘lsa bordir, menga farqi yo‘q. Men insondek yashasam deyman” demoqchi bo‘ldi, lekin dugonasidan “chin inson aslida, farzand o‘stirayotgan, bolasi uchun har narsaga tayyor inson” degan javob olishini taxmin qildi-yu, indamay qo‘ya qoldi.

Tushlik mahali Yukioning negadir tashqari chiqqisi kelmadi. Sheriklar qo‘ymagach, noi-loj o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Har doimgi oshxonasiga borishdi-yu, onasining ovqatlanishiga qo‘ymay hadeb g‘ingshiyotgan ikki-uch yashar bolakayga ko‘zi tushib jahli chiqdi.

Orada ovqat buyurishdi. Har xil mavzuda gap qizimoqda edi. Birdan dugonasi “Men Yevropada yashashni orzu qilaman” deb qoldi. Yukio Dongho bilan o‘tgan yil ta‘tilda Yevropaga sayohat qilib kelganlarini esladi. Yaxshi joylar, yashash uchun qulay, hamma sharoit bor, faqat juda-juda qimmat. Er-u xotin bir yillik topganidan bir oyda ancha-munchasini ishlatib qo‘yishdi.

- Sening orzuying nima, Yukio,
- dedi dugonasi unga yuzlanib.

Yukio dugonasiga tikilganча picha o'ylanib qoldi, so'ng, "Kompaniyaga direktor bo'lish" dedi kulib. Yengil kulgi ko'tarildi. Hazil o'rniga tushgandi.

Biroq Yukio negadir kayfiyatsiz ovqatlandi. Hali-hamon osmon bulutlarga to'la, yomg'ir isi ketmagandi. Ishxonaga oshiqarkan, yo'l bo'yi orzusi haqida o'ylab bordi.

Bir paytlar Yukioning ham ezgu orzusi bor edi. Oilada bir o'g'il, uch qiz edilar. Dadasining fe'li juda og'ir, "ko'cha xandon, uy zindon" erkaklardan edi. Ko'chadagi g'irt begonalarga qo'li ochiq, mehmondo'st bo'lib ko'ringisi kelar, uyda esa zulmkorligini qo'ymas, qamchisidan qon tomardi. Onasi ham, aka-opalari ham dadasidan qattiq qo'rqishardi. Dadasi goh u tanishini, goh bu tanishini yetaklab kelar, uyda yarim kechagacha o'tirib ichishar, yotoqxonada biqinib o'tirgan to'rt aka-singil ko'pincha och uxlashiga to'g'ri kelardi. Onasi mehnatkash ayol edi, umri oshxonada o'tdi.

Yillar shafqat qilmadi. Eng birinchi bu uydan akasi ketib qoldi. Maktabni bitirgach, shahardagi qaysidir bir kollejga hujjat topshirdi. Ko'p o'tmay katta opasi ham omad izlab shaharga jo'nadi. Aslida, ular oiladagi og'ir sharoit, qi-

yinchiliklardan bezib qochib ketishdi. Yukio buni bilardi. Bu paytda singlisi og'ir xastalikka chalinib yotib qolgan, onasi uzzukun singlisi-ning yonidan ketmas, uning tuzalib ketishi uchun tinmay duolar qilardi. Dadasi esa hamon oshna-og'aynigarchilikni joyiga qo'yar, ko'chadan beri kelmasdi. Kelganida esa, albatta, yonida kimdir bo'lardi. Onasi kechalari uxlamay chiqar, mehmon kelsa, yana oshxonada uymalarnar, Yukioning onasiga rahmi kelganidan barchasiga qo'l siltab ketishni xohlasada, bunday qilolmasdi. Bir kuni chidolmadi, dadasiga ortiq bunday qilmasligini aytdi.

– Onamni o'ylasangiz bo'lardi, tobora kuchdan qolmoqda. Rahmingiz kelmaydimi? G'irt begonalarni uyga yetaklab kelishni bas qiling, – dedi.

Otasi avvaliga hang-u mang bo'lib qoldi, bunday tarbiyasizlikni kutmagandi. So'ng tarsaki tushirdi.

– Sening ishing bo'lmasin, istaganimni qilaman, – dedi o'shqirib. –Tushundingmi? – qayta-qayta takrorladi shu so'zni.

Bu paytda Yukioning maktabni bitirganiga bir yil bo'lib qolgandi. Zarur narsalarini oldi-yu, uydan chiqib ketdi. Onasini o'ylamadi emas, o'yladi, biroq nima qilsin, ortiq chiday olmasdi. Ko'z oldida so'lib borayotgan singlisi-yu onasining ahvolini jim kuzatib turish juda og'ir edi.

Shaharga kelib kichikroq bir kafega ishga kirdi, shu orada qattiq tayyorlanib kollejga hujjat topshirdi.

Qiynalib o'qidi, keyinroq universitetga harakat qilib ko'rdi, ammo o'xshamadi. Kechalari ishlardi, universitetda o'z yonimdan xarjlab o'qiy oladigan darajaga yetgunimcha ishlayman, deb qaror qilgandi.

Yukio o'shanda, singlisi yotgan xonada dars qilarkan, xasta singlisining og'riq zo'ridan ingrashlari qulog'i ostida muhrlanib qolgandi. Singlisiga rahmi kelar, shifokor bo'lishni orzu qilardi. Shaharga kelgach, na akasidan, na opasidan yordam oldi. Ulardan xafa edi, onasini tashlab ketganlari uchun hamon alamzada edi. Ba'zan onasiga rahmi kelib, "To'rt farzand tug'ib, katta qilib, nima ko'rdi? Undan ko'ra, yolg'iz yashagani ming marta yaxshi emasmidi?" deb o'ylardi. Go-hida vijdoni qiynalardi.

Yillar bir-birini quvalab o'taverdi. Turmushga chiqmaslikka qaror qilgandi. Endi faqat o'zim uchun yashayman, degandi. To Donghoni uchratmagunicha qarori qat'iy edi. Biroq Dongho boshqalarga o'xshamas, juda-juda mehribon chiqdi, Yukioning ko'ngliga qarardi. Yukio o'sha bolalikdagi orzusiga yetisholmadi, lekin universitetda o'qidi. Dongho bilan tanishib, Koreyaga kelgach, yaponiyalik talabalar uchun o'rin ajra-

tadigan universitetning tarjimonlik fakultetiga o'qishga kirdi. Dongho Yukioning Koreyada qiyalmay o'qishi, yaxshi yashashi uchun barcha sharoitni yaratib berdi.

Yukio universitetni bitirgan yili Dongho uning qo'lini so'radi. Bu paytda ikkisi ham o'ttiz beshdan o'tishgandi. Yukio ota-onasining roziligini olish uchun vataniga qaytib bordi. Uydan ketganiga ko'p yillar bo'lib qolgandi. Jin ko'chada joylashgan uylar buzilib, o'rniga ko'pqavatli bino tushibdi. Otasi chetroq joydan boshqa uy olib ko'chib chiqqan ekan. Yukio so'rab-surishtirib topdi. Avval singlisi, ortidan onasi ham vafot etibdi. Otasining esa xotirasi xiralashib qolgan, Yukioni tanimadi. Yukio onasi bilan singlisining xoki ko'milgan yerda uzoq qolib ketdi. Birgina yupanch – Yukio ularni jannatga tushgan bo'lsa kerak, deb o'ylardi. "Axir, qanday qilib, butun umr ro'shnolik ko'rmay o'tib ketsang-u, narigi dunyoda hech yo'q baxtga erisholmasang... Xudo hech yo'q narigi dunyoda baxtli yashashingga sharoit yaratib berar?"

Yukio akasi bilan opasini surishtirib ko'rdi, biroq otasidan tayinli bir gap chiqmadi. Otasi hamon ko'chadan beri kelmas, biroq endi yonida oshna-og'aynilari yo'q, yolg'iz sang'irdi. Yukio o'shanda, "Bu hayot hech nimaga arzimaydi, umringni kim uchundir sarflash, hatto bolang

uchun qurbon qilish ahmoqlikdan boshqa narsa emas” degan xulosaga kelgandi.

Yukio ishdan qaytayotib, “Otamga o’xshab qolmayapmanmi?” deb o’yladi. Nahot u hayotda eng yomon ko’rgani – otasiga o’xshab qolgan bo’lsa? Uyga kelib huvillagan, keng xonada bir o’zi o’tirarkan, hamon o’sha xayollar ta’sirida edi. Otasi hozir nima qilayapti ekan? Endi nasib qilsa, ta’tilda boradi. Balki vafot etgandir, akasi yoxud opasi kelib dafn qilgan bo’lsa, ajabmas. Ehtimol, qo’ni-qo’shnilar himmat ko’rsatgandir. Xo’rsinib qo’ydi. “Inson bu dunyoga nega keladi? Albatta, bir kuni vafot etar ekan, nimaga tug’iladi?”

– Sinov uchun, – degandi Dongho bir gal, shu savolni berganida. – Yaxshi nom qoldirish, kimgadir yaxshilik qilish uchun dunyoga keladi kishi. So’ng insonlar zimmasidagi ana shu topshiriqni qanday bajarganlariga qarab jannat yo do’zaxga tushadilar.

“Men do’zaxga tushsam kerak” deb o’yladi Yukio. “Axir, kimgadir yaxshilik qilganimni eslolmayman. Hatto Donghoga ota bo’lish baxtini ravo ko’rmagan bo’lsam. Lekin hech kimga yomonlik ham qilmaganman. Janob Kim kabi kimningdir dilini og’ritganim yo’q. Do’zaxga ham tushmasman, ehtimol...”

“Ehh, – dedi Yukio, – bir paytlar qanday

edim-a. Hayot meni o'zgartirdi. Ezgulikka limmo-lim qalbimni to'kib, alam bilan to'ldirdi".

Shu payt yuqori qavatdan bolalarning dupur-dupur ovozi eshitildi. "Yarim kechagacha uxlamaydi-ya bu shumtakalar" deb qo'ydi g'azabi kelib. So'ng yana yolg'iz o'ylar o'z domiga torta boshladi. Yukio inkor qilardi. "Balki, yaxshi insondirman", oqlardi o'zini. "Yo'q, xudbinman", rad etardi ichki bir ovoz. "Faqat o'zimni o'ylayman".

Ancha paytgacha shu kabi xayollar bilan yolg'iz o'y surib o'tirdi. So'ng o'zini chalg'itishga urinib ko'rdi. Yana qahva damladi. Ayyonga chiqib tebranma stolida borib kelayotgan mashinalarni picha kuzatdi. Allamahol bo'lganida Dongho mast holda kirib keldi. Ishdan keyin o'n yil avval birga ishlagan og'aynisini ko'rib qolgani va u bilan o'tirib birga ichganini aytib uzr so'radi. So'ng Yukioga xayrli tun tilaganicha o'rniga kirib yotdi. Yukio esa o'y-xayollari bilan yana yolg'iz qolgandi.

ONAIZOR QISMATI

Har kuni shu yo'ldan o'tib qaytaman. Toshshag'al yotqizilgan qiyavon yo'l. Shafaq tomondagi bu tepalik ustida uylar orqama-ketin, zich joylashgan. Yo'l esa tepalikning qoq belidan kesib o'tgan, kunchiqar tomon archa chizib, pastlab ketgan. Qirrali toshlari oyoqqa botadi. Bu yerda turib, kunchiqarni, ufqdan quyosh qanday bosh ko'tarishi-yu maysalarni erkalagan, yam-yashil adirga yoyilgan quyoshning ilk nurlarini tomosha qilish mumkin.

Nurxon momoni har kuni ko'raman. Yuzlarini ajin bosgan, tishlari yo'q, sochlari oppoq, mung'ayib qolgan bir kampir. U shu toshloq yo'lning bir chetida tizzalarini quchoqlab o'tiradi. Bittagina ko'ylagi bor, ko'ylagining ustidan qishin-yozin kamzul kiyib oladi. Boshidagi oppoq ro'moli uzungina, beligacha tushib turadi. Oyog'ida rangi o'chib ketgan shippak bo'ladi. Salom bersam, alik olmaydi, gapirsam, indamaydi. Momo kunchiqar tomonga hazin nigoh tashlab uzoq o'tiradi. Go'yo har tong quyoshini qarshi oladi.

Momo erta tongdan tosh yo'lda nima qiladi? Quyoshning chiqishini kutadimi? Yo'q. Quyosh bilan nima ishi bor qari bu kampirning?

* * *

- Oyi, momo nega unaqa? – ilk bor hayron bo'lib onamni savolga tutganim esimda.

- Qanaqa?

- Salom bersak, alik olmaydi, so'rasak, javob bermaydi. Bir nuqtaga jim tikilib o'tiraveradi.

- Qulog'i og'ir.

- Eshitmasa, gapirmaydimi?

- Ehtimol, gung ham bo'lib qolgandir.

- Nega bu ahvolga tushgan, onajon?

- Kim bilsin, bolam. Kimdir, farzand dog'i shu ko'ygga solgan, yana boshqasi, vatanini sog'ingan, deydi. Erta turmush qurgan, o'n beshida to'yi bo'lgan-u, yoshi yigirmaga yetmay, bir etak bola bilan qolgan. O'n yil kutgan deyishadi o'sha nomard erini, ne kunlar boshiga tushmagan. Keyin bir etak bolani qari buvisiga tashlagan-u, yurtkezar Mo'ydin cho'loqqa ergashib, shu yerlarga kelib qolgan.

Mo'ydin amakidan uch bola orttirgan, ikki qiz-u bir o'g'il. Qizlari turmush qurib ketdi, o'g'li esa shunchaki, tashlab ketdi. Qachonlardir qaytar, ehtimol.

* * *

Bugun yana Nurxon momoni ko'rdim. Ol-didan bee'tibor o'tib ketolmadim. Alik olmasa-da, salom berdim. Yaqinroq bordim. Ko'zlarida bir mung bor edi. Nigohini bir nuqtaga qadab xokisor o'tirardi. Atrofida bir hovuch tosh-

lar yotardi. Momo go'yo shu toshlardek qotib qolgandi.

Momoni ming bir savol qiynar, ehtimol. Tashlab kelgan bolalarim omonmi? O'z yurtimda nima gap-so'zlar? Qizlarim qayerda? Kenjam nega qaytmadi ekan? Nahot endi butun umr diydoriga zor o'tsam?

Momoning savollari tugamaydi. O'g'li ketgan tomonga qarab o'tirarkan, bir xushxabar kutadi. Har kuni shunday o'tadi.

* * *

- O'g'il bo'lmay o'lsin, bag'ritosh, - deydi onam og'zida "chuq-chuq" tovush chiqarib, boshini sarak-sarak qilarkan.

- Nimasini aytasan, bitta o'g'il bo'lib onasiga shunday qiladimi? - deydi otam momoga rahmi kelib.

- Qizlari-chi, qizlari ko'rgani kelmaydimi momoning? - men ham suhbatga qo'shilaman.

- Katta qizi or qiladi, deyishadi. Onasining o'tmishidan, odamlarning gap-so'zlaridan qochib, boshqa bir shaharga ko'chib ketishgan. Kichik qizi har-har zamon kelib turadi, - deydi onam xo'rsinib.

- Mo'ydin amaki osongina qutuldi. O'tgan yili haqqa omonatini topshirdi-qo'ydi, - deydi otam derazadan tashqariga g'amgin boqarkan.

Momoning ayanchli ahvoli ko'z oldimdan o'tadi:

– O‘g‘il bo‘lmay o‘lsin, – deyman ichimda men ham.

* * *

Har kuni Nurxon momo yelkasini bukib, tiz-zalarini quchib o‘tirgan tosh yo‘ldan o‘taman. Momoga ich-ichimdan rahmim keladi. Qo‘llaridan tutib qaddini rostlasam, uyiga olib borib qo‘ysam deyman. Siz o‘zingizni buncha qiy-namang, degim keladi.

Yoniga borib turaman-turaman, bosh ko‘tarib qaramaydi.

– Ketdik, momo, – deyman. Eshitmaydi. O‘rni-dan turgazmoqchi bo‘laman, parvo qilmaydi. Bor og‘irligini yerga tashlab o‘tiraveradi. Hech kimni eshitmaydi, hech narsani sezmaydi go‘yo.

Balki, o‘tmishini xotirlar, yosh, go‘zal payti bir etak bola bilan tashlab ketgan eriga la‘natlar o‘qir, gunohlari uchun istig‘for so‘rar, o‘z yurtiga qaytgisi kelar, yoshlik qilib tashlab kelgan far-zandlarining taqdiriga qiziqar, ularga omonlik tilar, kenjasi – o‘g‘lini sog‘inar...

Quyosh bir yumalab osmon toqidan pastga tushib ketadi. So‘ng oy yuksakka ko‘tariladi. Mo-moning uyiga qaytganini hech kim ko‘rmaydi. Tongda esa yana momo shu ko‘yi o‘tirgan bo‘ladi.

* * *

– Balki, o‘lib qolgandir, – uch-to‘rtta mayda bolalar momoning atrofida o‘ralashib yuradi.

– Yo‘q, nafas olayapti, – deydi bittasi.

– Tirik, o‘lmagan, – deydi boshqasi. Momo esa parvo qilmaydi, balki eshitmaydi, balki ko‘rmaydi.

– Bechoraga qiyin bo‘ldi-da, – deydi momoning yonidan o‘tib ketayotgan uch-to‘rt yo‘lovchi.

– Nimasini aytasiz, egachi, dardi og‘ir-da, – rahmi keladi boshqa birovining.

– O‘g‘il shunday kuydirsa agar, tug‘maganim bo‘lsin, – deydi yoshrog‘i.

– Qilgan xatolarining hosilasi-da! Qismat. Gap o‘g‘ilda emas, – yoshi kattarog‘i nasihat qiladi o‘zicha. So‘ng ketishadi.

Qishloq odamlari har kuni shu yo‘ldan o‘tishadi.

* * *

Nurxon momo quyoshga boqib uzoq o‘tiradi. Uning emas, bora-bora mening sabrim tugaydi. Uzoqdan qizi ko‘rinish beradi. Oyog‘ida kalish sudrab zo‘rg‘a yetib keladi. Onasining qoshida turib yolvoradi mungli ovozda:

– Ona, ketdik, turing. Uyga kirib, biroz dam oling. Toliqib ketgandir xasta tanangiz. Qo‘llaringiz og‘riyotgandir? Uvishib qolgandir oyoqlaringiz?

Bu ovozni taniydi momo, alanglaydi atrofga birpas. Quloqlari ochilib ketgandek, ko‘zlariga nur qaytgandek go‘yo.

MUNDARIJA**Isajon Sulton**

Salohiyat daraklari.....	3
“Meni kechir, Kumiko!”.....	6
Men, bobom va ona bo‘ri.....	16
O‘qituvchining sukuti.....	24
Ayi.....	31
Ilinj.....	50
Noma‘lum ayol.....	57
Seni yaxshi ko‘raman, Mino!.....	85
Oxirgi kecha.....	91
Yukioning tanlovi.....	97
Onaizor qismati.....	111

Adabiy-badiiy nashr

Raxshona AHMEDOVA

ORZU VA DENGIZ

Hikoyalar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

UO'K: 821.512.133-32(081)

KBK: 83.3(50'zb)

A 90

A 90 Ahmedova, Raxshona.

Burgutqoya [matn]: *hikoyalar*/ R. Ahmedova.

- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. -118 b.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

✉ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 7,3.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №351.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

3205-00



RAXSHONA AHMEDOVA

ORZU VA DENGIZ

Raxshona Ahmedova
 1987-yil 11-aprelda Farg'ona viloyati
 O'zbekiston tumani
 Qayqubod qishlog'ida tug'ilgan.
 2008-2009-yillarda Janubiy
 Koreyaning Pusan chet tillar
 universitetida tahsil olgan.
 2010-yilda O'zbekiston davlat Jahon
 tillari universiteti Xalqaro jurnalistika
 fakultetini tamomlagan. Koreys
 sayohatchisi Han Blyaning "Dunyoni
 uch yarim marta yayov kezganda"
 kitobidan boblar, koreys yozuvchisi
 Shin Kyongsukning «Onamni asra»
 romani va boshqa ko'plab asarlarni
 o'zbek tiliga tarjima qilgan. Hikoya va
 tarjimalari respublikaning yetakchi
 nashrlarida chop etib kelinmoqda.

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6473-8-1



9 789943 647381